

Бухоро давлат университети
ўқув-методик кенгаш 4-сонли
йиғилишининг баённомасидан
КЎЧИРМАСИ

3.12.2020

Бухоро шаҳри

КУН ТАРТИБИ:

4. Турли масалалар.

Бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси Ғ.Сайфуллаев томонидан тайёрланган “Табиатшунослик дарсларида синфдан ташқари ишларни ташкил этиш” деб номланган методик қўлланмасини нашрга тавсия этиш.

ЭШИТИЛДИ:

Ғ.Тоирова (кенгаш котибаси) - Бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси Ғ.Сайфуллаев томонидан тайёрланган “Табиатшунослик дарсларида синфдан ташқари ишларни ташкил этиш” деб номланган методик қўлланмасини нашрга тайёрлаганлигини маълум қилди. Ушбу қўлланмага тақризчилар: доцент, п.ф.н. Ф.Қосимов ва БМТИ профессори М.Ахмеджановлар томонидан ижобий баҳо берилганлигини таъкидлади. Методик қўлланма муҳокамаси ҳақидаги Мактабача ва бошланғич таълим факультети (2020 йил 10 октябрь) ва Бошланғич таълим методикаси кафедраси кафедрасининг (2020 йил 3 ноябрь) йиғилиш қарори билан таништирди.

Юқоридагиларни инобатга олиб ўқув-методик кенгаш

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси Ғ.Сайфуллаев томонидан тайёрланган “Табиатшунослик дарсларида синфдан ташқари ишларни ташкил этиш” деб номланган методик қўлланмасини нашрга тавсия этилсин.

Ўқув-методик кенгаш раиси
Ўқув-методик кенгаш котибаси



Даминов М.И.
Тоирова Г.И.

Кўчирма аслига тўғри


Ўқув-методик кенгаш котибаси

Тоирова Г.И.

TABIATSHUINOSLIK DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi a ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi. Maktab va maktabdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinf va maktabdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

G'.M. SAYFULLAYEV. BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI.



978-620-0-61028-7

Globe
EDIT

Globe
EDIT



G'ulom Sayfullayev

TABIATSHUINOSLIK DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH

O'QUV QO'LLANMA

G'ulom Sayfullayev

**TABIATSHUINOSLIK DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI
TASHKIL ETISH**

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

G'ulom Sayfullayev

**TABIATSHUINOSLIK DARSLARIDA
SINFDAN TASHQARI ISHLARNI
TASHKIL ETISH**

O'QUV QO'LLANMA

FOR AUTHOR USE ONLY

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

International Book Market Service Ltd., member of OmniScriptum Publishing Group

17 Meldrum Street, Beau Bassin 71504, Mauritius

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-0-61028-7

Copyright © G'ulom Sayfullayev

Copyright © 2020 International Book Market Service Ltd., member of OmniScriptum Publishing Group

FOR AUTHOR USE ONLY

KIRISH

”Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson, millati, tili va dinidan qat’i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo’lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir”

Shavkat Mirziyoyev

Boshlang’ich sinflarda bolalarni har tomonlama tarbiyalashda o’quvchilarni tabiat bilan tanishtirishda sinfdan tashqari ishlarning o’rni juda muhim masala bo’lib qolmoqda. Jamiyatda o’z o’rnini topish ko’nikma malakalarini rivojlantirishda tabiatning o’z o’rni bor, buning uchun sinfdan tashqari ishlarga ham katta e’tibor berishni taqozo etadi. Bolalarni, yosh avlodni, ona-Vatanimizni sevishga, uning o’simliklari, hayvonot olamini asrash, saqlash, ko’paytirish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

“Ta’lim, ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta’limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega.” O’zbekiston respublikasi prezidenti Mirziyoyev Sh.M.

Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo’lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo’lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi”

Mamlakatimizda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy maqsadi ta’lim tizimini takomillashtirish va jahon andozalari talablari darajasida tashkil qilishdan iborat bo’lib, bunda bajarilishi lozim bo’lgan asosiy yo’nalishlardan biri o’quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan ta’lim - tarbiya ishlarini amalga oshirishdir. Mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy g’oyasi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi. Barkamol shaxsning muhim sifatleri bo’lgan mustaqil va ijodiy fikrlash, mustaqil ishlay olish qobiliyatini tarbiyalash umumiy o’rta ta’lim maktabining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bu

o'rinda boshlang'ich ta'limning o'rni muhimdir. Hozirgi vaqtda maktab o'qituvchilari oldiga juda katta vazifalar qo'yilganki, bu vazifalarni hal etishda o'qituvchidan bilim, yuksak mahorat talab qiladi. Bu vazifalar qatoriga o'quv dasturiga qat'iy rioya qilgan holda o'quvchilarga bilim berish, talimda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'qitishning mahsuldor metodlari, ta'lim vositalaridan unumli foydalanish, ta'limni tabaqalashtirgan holda tashkil etish va boshqalarni kiritish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z-o'zini tartibga solish, o'z-o'zini nazorat qilishi asosiga qurilgan va o'quv xonalarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak.

Sinfdan tashqari ishlarning vazifasi bolalarning tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, tizimga solish, ularning axloqiy ko'nikmalarini boyitish, odamlar hayoti va mehnatiga qiziqish uyg'otish, oila, maktab, jamoat joylarida o'zini to'g'ri tutish shakllariga qaratiladi.

O'quvchilarning ilmiy-amaliy dunyoqarashini shakllantirish maqsadida ular jonli va jonsiz tabiatning sabab va oqibat aloqalari va munosabati belgilash, tabiat haqidagi ma'lum qonuniyatlarni ochish, o'rganilayotgan ob'ekt o'xshashliklari, farqli belgilarini, guruhlash, saralash, xulosa chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

I BOB

Boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik fanini o`rganishning shakllari

1 - & Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning mazmuni

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko`ngillilik asosida tashkil qilinadi. O`quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o`zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi a ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Maktab va maktabdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinf va maktabdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan va maktabdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo`lishi lozim:

- pedagoglar va o`quvchilar o`rtasida o`zaro hurmat munosabatlarini shakllanganlikning o`ziga xos an'ana vositalariga tayanish;

- ulg`aygan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o`smir va yosh yigitning betakror va o`ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e`tiborda tutish zarur.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o`quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to`ldiradi. Ularni dunyo qarashini to`g`ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko`maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog`lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko`p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni nazorat qilish;

- darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;

- o`quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko`p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o`quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo`lga qo'yish;

- sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish;

- umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish;

-o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish;

Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.

Tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin: - tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish; - tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash;

- tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni, shakl va usullarini aniqlash;

- sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni guruhlashtirish, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

- maktabda tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirmasdan uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko'zda tutilgan maqsadga erishish qiyin.

- sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoachining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishga bog'liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faoliyat ilmiy jamoa, adabiy va maktab teatrlarining ishlari, turli mavzularda o'tkaziladigan kitobxonlar konferensiyasi va munozaralar, siyosiy, axloqiy, ilmiy-ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruza va suhbatlar, ijtimoiy-foydali mehnat, siyosiy axborot, bayram kechalari va ertaliklari, to'garak mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi;

-o'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi;

-o'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadi, turli vazifatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilmag'xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoada ishlashni o'rganadilar ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar, jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyat unda qatnashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu jarayonga ular ta'lim olayotgan maktabning sharoiti ham ta'sir etadi. Garchan mamlakatimizdagi barcha maktablarning vazifalari bir bo'lsa-da, o'sha maktablarning o'ziga xos xususiyatlari bor va bu xususiyatlr madaniy va milliy sharoitlarda yaqqol ko'rinadi. Tarbiyachilar, sinf rahbarlarining sinfdan va maktabdan tashqari olib boradigan tarbiyaviy ishlarida quyidagi ish usullaridan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Maktabdan tashqari muassasalarning ishi diqqatga sazovor. Bolalar kutubxonalari maktablarning boshlang'ich I-IV sinflari o'quvchilariga, shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi kitob o'qiy oladigan bolalarga xizmat ko'rsatadi. Kutubxonaning butun ishi bolalarga yaxshi tarbiya berishga, fan asoslarini o'rganishda o'quvchilarga yordamlashishga, bolalarda o'qish madaniyatini tarbiyalashga, mustaqil ravishda bilim olish malakalarini hosil qilish va mustahkamlashga qaratilgan.

Ko'pgina maktabdan tashqari muassasalarning ishlari misolida, maktabdan tashqari muassasalar o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishida maktab va oilaga jiddiy yordam bermoqdalar degan xulosaga kelish mumkin. O'qituvchi muayyan aholi yashaydigan joyda maktabda qanday muassasalar borligini bilib, ular bilan hamkorlikda qilinadigan ishni yo'lga qo'yadi, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni to'garaklarga yo'llaydi. Maktab bolalalari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishni rejalashtirishda maktabdan tashqari muassasalardan olishi mumkin bo'lgan yordamni ham nazarda tutadi. Maktabning tarbiyaviy ish

rejasini bolalar muassasalarining rejasiga moslashtirish zarur. Maktab tarbiyaviy ish rejasini o'quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqarida olib boriladigan ishlarning forma va metodlarini, ularni oqilona yo'lga qo'yishni o'z ichiga oladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar tashkilotchisi, maktab tarbiyaviy ishining umumiy rejasini tuzadi hamda o'quvchilarga har tomonlama tarbiya berishda maktab o'qituvchilari, maktabdan tashqari muassasalar hamda maktabni otaliqqa olgan tashkilotlarning ishlarini bir-biriga muvofiqlashtiradi.

O'quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavq'eni shakllantirish, o'zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko'p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga bog'liqdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi, to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishiga zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.
2. O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish.
3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.
4. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.

Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Tashkilotchining amalga oshirish mumkin bo'lgan jarayonlarni kiritish mumkin:

1. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish.
2. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash.
3. Tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash.
4. Sinfдан, maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarni o'rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga otlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi:

1. Og'zaki ish usullari: majlislar, yig'inlar, ma'ruzalar, kutubxonalar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar.

2. Amaliy ish olib borish usullari turli joylarga sayyohatlarga, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko'rgazmalari.

Sinfдан tashqari mashg'ulotlar pedagogikadan butun qobiliyatlarini ishga solishga taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir.

Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar turli qo'llanmalar, asboblari, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o'rganadilar, o'z-o'zini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko'nikmalarini egallaydilar.

Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlariga, maktabning joylashgan shart-sharoitlariga, ijodiy birlashmalariga, ilmiy markazlar bilan o'zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati, o'z ifodasini topgan xujjatlar ro'yxati, xalq ta'limi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ishlab chiqiladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnoma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi.

Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashning xilma-xil shakllarini olgan, nazariy bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi;
- tajribalar, ijodiy tusdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyihalashni, maketlar, modellar vahokazolarni tayyorlashni olgan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar sistemasi maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar metodikasi fani va bo'limiga sinf rahbarlarining ishlari, maktab ma'muriyatining tarbiyaviy ishlari kiritiladi. Bunda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomilasi, adolatli bo'lishi, ta'sir ko'rsata olishi kerak.

O'quvchi yoshlarni hozirgi zamon ma'naviyati bilan ongini sug'orish, ya'ni singdirish kerak. O'quvchilarni qadriyatlarimiz asosida urf-an'analарimiz asosida tarbiyalash har bir o'qituvchining vazifasi.

O'quvchi atrofini o'rab turgan vositalar, yaxshi-yomon odatlar, o'qituvchilar, maktabning muhiti, o'quvchilarning ekologik tafakkurini to'g'ri, ongli ravishda shakllantirish va qabul qilish. Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

1. Fan to'garaklari.
2. Mohir qo'llar.

3. Duradgorlik.
4. Sport musobaqalari.
5. Badiiy havaskorlik.

Ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda xalqning boy, milliy ma'naviy an'analarga, urf- odatlari hamda qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy ishlarni amalda ishlab chiqishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi- shaxsning aqliy-axloqiy tarbiyalashda erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda quyidagi pedagogik talablar mavjud:

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining to'garak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak. To'garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so'nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish o'rin tutadi. To'garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo'lishi, ular davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni yaxshi bilish kerak.

O'quvchilarning mustaqilligi turli darajada bo'lganida mustaqil tayyorgarlik amalga oshirilish mumkinligini hisobga olish muhimdir, albatta bu esa ular shaxsining shakllanishiga shubhasiz ta'sir ko'rsatadi. Ayrim o'quvchilarning ishdagi faol va mustaqil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki o'quvchilarning o'zlari oldilarida turgan vazifalarini va ularni hal etish yo'llarini ancha yaxshi tushunadilar. Shuningdek, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni nazoratsiz ijro etish holati rasmiy ijrochilik, ishtiyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan o'quvchilarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mavjud bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, aks holda o'quvchilarda ishiga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo bo'ladi, bu esa ularni mehnatdagi tashqi faollikni yo'qqa chiqaradi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishda tarbiyachi eng muhim vazifa o'quvchilarni o'quv vazifalarini hal etishga o'rgatishdan, buning uchun harakat usullarini to'g'ri tanlashdan, o'z hatti-

harakatlariga rahbarlikni faoliyatini nazorat qilishdan, mustaqil ish ko'nikmalarini boshqa muhim xayotiy vaziyatlarga o'tkazishdan kelib chiqishdan lozim ekanligini nazarda tutish talab etiladi. Mazkur jihatlarni shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining muhim va murakkab vazifalaridandir. Buning uchun o'quvchi faoliyati natijalarini hisobga olishni va bujarayonni tahlil etishni uyushtirish zarur. O'qituvchi sinf-dars faoliyati uchun xos bo'lgan shakllarni istisno etib, nazorat qilishning birqancha usullarini qo'llashi mumkin. Eng kuchli va qobiliyatli o'quvchilarga xomaki yozuv bilan ishlash xuquqi beriladi. Unda qoida ko'rsatiladi, bu qoidani tasdiqlovchi misollar keltiriladi, o'quv vazifasi qayd etiladi. Yozuv juda qisqa bo'ladi, lekin u o'quvchining fikrlashi qanday borganligini ko'rsatadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'quvchilarni ayrim ko'nikmalarga o'rgatishni nazorat vositasi deb hisoblash kerak. O'z-o'zini tekshirish, o'zaro tekshirish usullariga o'rgatish o'qituvchining o'quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash ishi jarayoni ravshan bo'ladi. O'quvchilarning o'zlari harakatni taklif etadilar vash u bilan pedagogga muayan ma'lumot beradilar. Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning yetakchi tamoyilidir. Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi yangi pedagogikada to'la ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kurslarida bayon etilgan jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlabchiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv-mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish. Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma hisoblanadi. Boshlang'ich sinfda va maktabdan tashqari ishlarda sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinfda va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar xayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishag zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko'p qirralidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi: Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish.

O'quvchilarni maktabdan va sinfdan tashqari ko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar, tashkilotlar, sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar o'quvchilar, tashkilotchilar sinf faollariga yordam ko'rsatish. Umummaktab va maktablararo tarbiyaviy tadbirlarga qatnashish. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy bo'ladi. Maktab tashqaridagi ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarini o'rganadilar. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari o'z ishini reja asosida olib boradi va uning bajarilishini ham nazorat qilib boradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning umumiy rejasi, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, yetakchi ota-onalar qo'mitasi, ish rejaları ishini ham e'tiborga olishi kerak.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ekologik tafakkurini shakllantirishda boshlang'ich 1-2 sinf "Atrofimizdagi olam" o'quv dasturi "Atrofimizdagi olam" fani o'quvchilarning atrof va olam haqidagi tasavvur hamda tushunchalarini shakllantirish bilan birga ularning so'z boyliklarini oshirishga qaratilgan "Atrofimizdagi olam" fani kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni atrofda hayot hodisalari bilan tanishtirish jarayonida ularning o'rganish qobiliyatini uzluksiz rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilimlarni berish, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

1-sinflar uchun "Atrofimizdagi olam" o'quv dasturi "Kirish", "Atrofimizdagi tabiat", "Biz foydalanadigan jihozlar", "Bizning o'lka" kabi qiziqarli bo'limlarni o'z ichiga olgan.

2-sinflar uchun “Atrofimizdagi olam” o‘quv dasturi esa “Kirish”, “Atrofimizdagi olamni o‘rganamiz”, “O‘lkamizda kuz”, “Ona zaminimiz”, “Qish”, “Sog‘ tanda – sog‘lom aql”, “O‘lkamizda bahor” kabi bo‘limlardan iborat.

O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida, tabiat va ijtimoiy hayotdagi hodisalarni kuzatadilar. Mashg‘ulotlar faqatgina sinfda emas, balki ko‘chada, istirohat bog‘larida, muzeyda, dalada va boshqa shu kabi joylarda o‘tkaziladi. Tabiat qo‘yniga sayr, turli kasb egalari bilan uchrashuv va suhbatlar, didaktik o‘yinlar, rasmlar chizish, diafilm, diapozitivlar, kompyuterda ko‘rish – bular mashg‘ulotlarning bolalar uchun qiziqarli va sermazmun o‘tishiga imkon yaratadi.

3-sinf “Tabiatshunoslik” dasturi quyidagi bo‘limlardan iborat: “Kirish”, “Foydali qazilmalar”, “Tabiatda havo va suv”, “O‘simliklar”, “Hayvonot olami”, “Sog‘lig‘imizni saqlaylik”. Dasturdagi dastlabki mavzu ona yurt tabiatini yoritib berishga qaratilgan. 3-sinfda tabiatdagi havo, suv, foydali qazilmalar va tuproq singari jonsiz tabiat mavzulari haqida bilimga ega bo‘lgan o‘quvchida atrofda o‘simlik va hayvonot dunyosini o‘rganish zarurati yuzaga keladi, shuningdek, 3-sinfda tabiatshunoslik fani materiallarini o‘rganish jarayonining mantiqiy izchilligi ta‘minlanadi. “Bizni o‘rab turgan havo”, “Suvning xususiyatlari”, “Tabiatda suv”, “yer osti boyliklari”, “Tuproq” mavzularini o‘rganish jarayonida quyidagilarga alohida e‘tibor qaratilgan: tabiat va inson hayotida suv, havo, tuproq qanday o‘rin tutadi? foydali qazilmalar nima uchun kerak? suv, havo, tuproqni qanday asrash lozim?

4-sinf Tabiatshunoslik fanidagi mavzular quyidagi bo‘limlar tarkibida o‘rganiladi: “Kirish”, “yer - quyosh sistemasidagi sayyora”, “yer yuzasi tabiatining xilma-xilligi”, “O‘zbekiston xaritasi yonida”, “Vatanimiz bo‘ylab sayohat”. “Kirish” mavzusida “Atrofimizdagi olam” fanidan birinchi sinfdan uchinchi sinfgacha olingan bilimlar umumlashtiriladi.

“Yer quyosh sistemasidagi sayyora” bo‘limi o‘z ichiga “Yulduzlar”, “Quyosh - eng yaqin yulduz”, “Quyosh sistemasidagi sayyoralar”, “Asteroidlar”, “Kometalar”, “Meteroidlar”, “Globus – yerning kichraytirgan shakli”, “Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi”, “Kun bilan tun”, “Yil fasllarining almashinishi”, “Yerda yorug‘lik va issiqlikning taqsimlanishi”, “Oy - yerning yo‘ldoshi” kabi mavzularni o‘z ichiga olgan. Ushbu mavzularni o‘tishda yulduzlar, sayyoralar, asteroidlar, kometalar,

meteorlar haqida tushunchaga ega bo'lish bilan birga yer sharining tuzilishi, materik va okeanlarning joylashuvi, O'zbekistonning globus va yarim shar xaritalarida joylashgan o'rni bilan tanishiladi. O'quvchilar quyosh nuri tushadigan yer yuzasi mintaqalari, ularning joylashuvi haqida xabar topadi, ob-havo haqida oddiy tasavvurga ega bo'ladi.

O'quvchilar aniq misollar yordamida sayyoramizning ekologik muammolari bilan tanishadilar va imkoniyatlari yetgancha ularning yechimlarini izlashga harakat qiladilar.

O'quvchilarda yer yuzasining shakllari (tog', tekislik va suvli joylar) haqida 2-sinfning "Atrofimizdagi olam" fanidan olgan oddiy tushunchalari 4-sinfning tabiatga sayohat darslarida aniq tushunchalar asosida shakllantiriladi. Ta'limning ko'rgazmali hamda texnik vositalaridan foydalanish yo'li bilan bu tasavvur va tushunchalar mustahkamlanadi. O'quvchilar tepalikni tog'dan, tekislikni o'rmon-qirlardan ajrata olishlari yer yuzasi shaklini o'rganish, solishtirish asosida olib borilishi lozim. Agar imkon bo'lsa, o'quvchilar sayohat chog'ida suv havzalari bilan tanishadilar.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ekologik tafakkurini shakllantirish va kasbga yo'naltirish ishlari funksional tuzilmasi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarining, jamiyatda mavjud kasblar doirasining kengayib, chuqurlashib hamda murakkablashib borishi o'z-o'zidan shaxsga ta'lim berish jarayonining umumiy mohiyatini ochib berishga, uni qo'llay bilishga xizmat qiladi.

2-& Tirik tabiat burchagidagi ishlar. Turli tadbirlarni o'tkazish usullari.

Tirik tabiat burchagi faqat o'simlik va hayvonlarning saqlash uchun va ular ustida tajribalar tayyorlash va darslarda namoyish qilish uchungina emas, balki darsdan va sinfdan tashqari ishlarni bajarish joyi hamdir. Unda o'quvchilarni bilimga qiziqishlari bilish doirasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlari bor.

Tirik tabiat burchagidagi barcha turli tuman o'simlik va hayvonlarni muayyan sistemada qulay va chiroyli joylashtirish lozimdir. Mayli tirik tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlar ko'p bo'lmasin, lekin toza ozoda bo'lsin. Ularning pasporti va etiketkasi bo'lsin. Bu ular bilan yaxshi tanishish imkoniyatini beradi. Tirik tabiat

burchagi – faqat o`quvch joyi emas balki ko`p qirrali tarbiyaviy ishlar joyi hamdir. Tirik tabiat burchagida butun o`quv yili davomida quyidagi o`simliklar saqlanadi: yovvoyi o`t o`simliklar urug`laridan, ildizlaridan, piyozlaridan ko`paytiriladigan o`simliklar. Daraxt va butalarning shoxlari, xona o`simliklari tirik tabiat burchagining asosini tashkil qilishadi. Har bir o`simlikning tirik tabiat burchagiga qo`ymasdan oldin uning biologik xususiyatini hisobga olish zarur. O`simliklarning yorug`lik, namlikka, issiqlikka, bo`lgan munosabatini o`rganadilar. Quruqlikda o`sadigan xona o`simliklari: aloe, agava, exiveriyalardir.

Nam joyda o`sadigan xona o`simliklari: arum, begoniya, makstra, tradeskansiya, siperuslardir.

Namligi o`rtacha joyda o`sadigan o`simliklar: fikus, aspidistra, limen, kliviya, pilargeniya. Tropik o`simliklar: kaktuslar, agavalar, aloe, begoniya, fikus.

Tirik tabiat burchagi uchun muhimi shuki ularning derazalari janub va janubiy sharq tomonga karagan bo`lsin. Derazalarning yorug`lik maydonidan yaxshi foydalanish va o`simliklarni chiroyli joylashtirish uchun maxsus tokchalar qilinadi. Tirik burchakdagi har bir o`simlikning nomi yozilgan etiketka bo`lishi kerak. unda o`simlikning nomi, oilasi, vatani, aniqlagan shaxs ko`rsatiladi.


Tirik tabiat burchagidagi hayvonlar. Tirik tabiat burchagida akvarium bo`lib, unda turli xil baliqlar, shox ilonlar, suv qo`ngizlari, gidralar, dafniyalarni saqlash ancha qulaydir. Boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun akvariumda peskar, g`ambo`ziya, teleskop, laqqa, saqlash muhim ahamiyatga ega. Kundalik kuzatish daftariga gambo`ziyani ko`paytirishga doir, lichinkalarni paydo bo`lishi va o`sishini yozib boradilar. Dasturga muvofiq boshlang`ich sinf o`quvchilari terrariumlarni ham tashkil etadilar. Unda sudralib yuruvchi hayvonlar va amfibiyalar saqlanadi va hayotini kuzatib borishlari zarur bo`ladi. Boshlang`ich sinf o`qituvchisi shunday qilishi kerakki, har bir o`quvchi doimiy ravishda hayvonlarni kuzatsinlaro`simliklarni

parvarish

qilsinlar,

hayotini

o`rgansinlar.



Tirik tabiat burchagidagi tajribalar, kuzatuvlar o`qituvchi nazorati asosida bo`lishi zarurdir. Barcha ishlar reja asosida bajarilishi lozim, hamda mavsumiy o`zgarishlar hisobga olinishi shart.

Tirik tabiat burchagidagi ishlar bir yillik, olti oylik, choraklik bo`lishi mumkin. Reja tuzishda boshlang`ich sinf bolalari yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Rejada mavzu maqsad va nimalar o`rganilishi bo`lishi kerak.

Sinf xonasidagi tabiat burchagida chiroyli, Erkin gullaydigan o`simliklar, chiroyli rangdagi tursiz leyka bo`lishi kerak. Bu guruxda o`simliklarni o`qituvchi

parvarish qiladi: barglarini artadi, suv quyadi, gul tuvaklarining tagliklarini yuvadi, shu bilan birga o`simliklarni parvarish qilishga xoxish bildirgan bolalarning talablarini ham bajaradi: ularga lineykani berib, gulga qanday suv qo`yish kerakligini, leykani baland ko`tarmastdan, lineykani oxistagina qo`yish lozimligini aytadi.



Dastlab, o`qituvchi bolalarning leyka ushlagan qo`lini o`zi ushlab turib, suv qo`yishni ko`rsatadi. Sekin-asta bu ishga hama bolalar ham darrov uddalay olmaydilar. O`qituvchining vazifasi, bolalardagi o`simlikni parvarish qilish bo`yicha kichkinagina muvaffaqiyatni ko`ra bilish va uni qo`llab quvvatlashdir. Bolalarni o`simliklar bilan tanishtirishda ularni tabiatdagi o`simliklarni parvarish qilishga oid mehnatgagina jalb qilmay, shu bilan birga ularni kuzatishga ham o`rgatib boradi. Bolalarga begoniya va yorongul o`simligi gullarining chiroyliligini ko`rsatib, gapirib beradi. Bu yoshdagi bolalar xona o`simligining 2-3 tasini nomini bilishlari, uning

qismlari: guli, bargi, poyasini soʻz bilan ayta bilishlari kerak.



Oʻqituvchi bolalarda oʻsimliklarni asrab avaylash, ularni parvarish qilish, xoxishini tarbiyalab boradi. Bu yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan individual ishlardan tashqari, kichkina gurux bolalari bilan «xudi shundayini top», «kattalar va kichiklar», «bitami yoki koʻp» oʻyinlari oʻtkaziladi. Bular orqali oʻqituvchi oʻsimliklarning nomini, oʻziga xos ayrim belgilarini aytishni mashq qildirib boradi. Bular hammasi yilning oʻrtalariga kelib butun gurux bolalari bilan mashgʻulot oʻtkazish imkoniyatini yaratadi.

Kuzda hayvonlarni kuzatish. Oʻqituvchi kuzda elektr simlarida koʻra munchoqdek tizilib oʻtirgan kaldirgʻochlarga, galalashib uchib ketayotgan qushlarga bolalarning diqqatini qaratadi va ularga koʻz boʻlib, salqin boʻlgani uchun qushlar issiq oʻlkalarga uchib ketayotganligini tushuntirishi kerak. Maydonchada uchib yurgan chumchuq, qarqʻa, musichaga bolalarning diqqatini jalb qilib, ular xech

qayoqqa uchib ketmasligini shu yerda qishlab qolishini, shuning uchun ularning donxo`rakliklariga don sepish kerakligini tushuntiradi. Musichani chumchuqlardan farqlovchi belgilarga qarab farqlashga o`rgatadi. Maydonchaga don, uvoq sepib, qushlarning cho`kib ketayotgani kuzatiladi. O`qituvchi sayrdagi kuzatishdan keyin vaqti- vaqti bilan bolalar kuzatgan o`simlik, hayvon tasvirlangan rasmni gurux xonasiga osib qo`yadi. Bolalarni yoniga chaqirib: «bugun sayrda nimani ko`rdik» degan savollar beradi.

O`qituvchi kuzda elektr simlari qora munchoqdek tizilib o`tirgan qaldirg`ochlarga, galalashib uchib ketayotgan qushlarga bolalarning diqqatini qaratadi va ularga ko`z bo`lib, salqin tushgani uchun qushlar issiq o`lkalarga uchib ketayotganligini tushuntirishi kerak. Maydonchada uchib yurgan chumchuk, qarga, musicha bolalarning diqqatini jalb qilib, ular xech kayerga uchib ketmasligini, shu yerda qishlab qolishini, shuning uchun ularning donxo`raklariga don sepish kerakligini tushuntiradi. Musichani chumchuqdan farqlovchi belgilariga qarab farqlashga o`rgatadi. Maydonchaga don, uvoq, sepib, qushlarning cho`kib ketayotgani kuzatiladi. O`qituvchi sayrdagi kuzatishdan keyin vaqt-vaqti bilan bolalar kuzatgan o`simlik, hayvon tasvirlangan rasmni xonasiga osib qo`yadi, bolalarni yoniga chaqirib: «Bugun sayrda nimani ko`rdik» degan savollar beradi.

Qushlar. Sayrga chiqish oldin non ushoqlaridan olib oling va qushlarning donxuraklariga sepib, bolalar bilan musicha, chittak, chumchuq va boshqa qishlab qolgan qushlarning non uvoqlarini cho`qib yeyishi kuzatiladi. Qushlarning tumshug`i bor, donni, nonni tumshug`i bilan cho`kib yeydi, oyog`i bor, yuradi, dumi bor, qanoti bor, uchadi, deb, bolalarni qushlarning xatti-harakatini kuzatishga jalb etiladi. O`qituvchi bolalar bilan «Chumchuqlar va kabutar» o`yinini o`ynaydi. Bolalar uch guruxga bo`linadilar: birinchisi – kabutarlar, ikkinchisi – chumchuqlar, uchinchisi – bolalar. Bolalarga o`qituvchi shunday hikoya qilib beradi: «Qish kirgach, juda sovuq bo`ladi, qushchalarning qorni ochib qoladi. Bolalar kelib qushchalarga don va non ushoqlarini sepib qo`yishdi va ularni cho`chitmaslik uchun o`zlari chekkaga kichik turishdi, kabutarlar donni, nonni ko`rib uchib kelishdi. Kabutarlar sekin uchishdi, qanotlari katta ochiladi, ularning orqasidan chumchuqlar kelishadi. Ularning qanotlari kichkina, tez-tez ochiladi. Uchib kelishdi, donlarni tez-tez yeb, o`ynay

boshlashdi. Kabutarlar yuradi, boshini qimirlatadi, chumchuqlar sakrab-sakrab yurishadi. Kabutarlar guli-guli deyishadi, chumchuqlar chug`ur-chug`ur qilib chug`urlashadi. Qushlar donlarni cho`qib, qorni to`ygandan xursand, xullas hamma xursand».

Kichkina bolalar bilan katta bolalar o`z maydonchasida qushlarga ovqat berayotganini kuzating. Shundan so`ng o`zingiz donxo`rak yasab, guruhdagi oyna oldiga ilib qo`yinglar, har kuni ertalab donxo`rakka don sepishni unutmanglar. Bolalar qushlarning don, non ushoqlarini cho`qiyotganini o`qituvchi bilan kuzatishadi.

Bolalarga, agar qushlarning qorni to`q bo`lsa, har qanday sovuq ham ular uchun xavfli emasligini tushuntiring. Bolalarga qushlarning xatti-harakatlari to`grisidagi bilimlarini mustaxkamlash uchun «donxo`rakka kim uchib keldi» o`yinini o`ynating. Dastlab karton qog`ozdan tanish bo`lgan qushlarning shakli qirqib olinadi. Stol ustiga oq qog`oz yozib, bolalarning hamasini stol atrofiga shunday o`tkazingki, sizning harakatingizni bemalol kuzata olsinlar. O`qituvchi shunday deydi: «Manna donxo`rak, men unga don sepaman, xozir qushlar uchib keladi. Mana uchib keldi... bolalar bu qaysi qush? (Kabutarlarni ko`rsatadi, bolalar javob beradilar.) kabutarlar don yeb, chaqiradi... Kimni chaqiradi? (bolalar aytadi). Yana kabutar uchib kelar ekan? (Bolalar qushning nomini aytishadi.) Xa to`g`ri, chittak yog`ni yaxshi ko`radi, mana u uchib keldi. Chittak yog`ni cho`qiyapti».

Bolalar uy hayvonlarini kuzatishadi. Sayr vaqtida bolalagan hayvonlarning bolalarini o`z onalarini emayotganini va onalari bolasini tili bilan yalab turganini ko`zating va yuvoshrok hayvonlar bolalarini silashga ruxsat bering. Bolalar ularning yunglari, terisi yumshoq ekanligini sezadilar. Hayvonlar bolasining tana qismlarini bolalarga gapirib bering. Hayvonlarni ko`zatgandan keyin «Bu uyga Kim yashaydi?» uyinini o`ynating. O`qituvchi bolalarni guruxlarga bo`ladi: har bir guruxni hayvonlarning bolalari bilan tasvirlaydi. Bolalar 4 burchak bo`lib turishadi. Bita bola keladida qo`lidagi tayoqchasi bilan taq-taq qilib so`raydi: «bu uyda Kim yashaydi?», bolalar o`zlari aks ettirayotgan hayvonning tovushiga taqlid qilib, ovoz chiqarishadi. Qurbaqa singari quririlashadi, g`ozga o`xshab g`a-g`alashadi, toycha bo`lib kishnashadi. Keyin bolalarga uy hayvonlari tasvirlangan kartochkalar tarqatiladi. Bu

hayvonlarning bolalari tasvirlangan kartochkalar o`qituvchining o`zida qoladi. Bolalardan so`raydi: «mushuk bolalari onasini yo`qotib qo`yib yig`lab o`tirishibdi, ularning onasi kim?» «Mushuk» - deydi bolalar. «Kelinglar, ularga onasini topishga yordam beramiz». Qo`liga mushukning rasmi bor bola mushuk tasvirlangan kartochkani ko`rsatadida, mushuk bolalari tasvirlangan kartochkani oladi. Hamma hayvonlarning bolalari «ona» larini topib olguncha uyin davom etadi.

Qishlok joylarda bolalar bilan, otni toychog`i bilan, sigirni bo`zog`i bilan, tovuqni jo`jalari bilan kuzatiladi.

Hasharotlar. Bolalar bilan may qo`ng`izini, xon qizini, o`t ichiga chirrilayotgan chigirtkani kuzating. Qo`ng`iz, chigirtkaning rangi o`simlik bargiga o`xshash yashilligini xon qizi esa daraxt po`stlog`i kabi jigarrang, qizil tusli ekanini, ular o`simlik ichida daraxt tanasida yurganda ularni ajratib olish qiyinligini bolalarga tushuntiring. Qo`ng`izlar oyog`i bilan yuradi, chigirtka esa sakraydi, buni bolalarga ko`rsatib, so`z bilan farqini tushuntiring.



Qushlar. Bolalar diqqatini qushlar donxo`raklariga qarating va ular kamdan-kam keladigan bo`lib qolganining sababini tushuntiring va ularga donxo`raklarda qushlar yo`qligini ayting. Ammo, tevarak-atrofdagi daraxtlar tepasiga ko`plab har xil qushlar uchib yurganini ko`rsating. Kichik guruxlardagi bolalar mushuk bolalari va kuchukchalarni kuzatishni juda ham yaxshi ko`rishadi. Bolalardan kuchukchalar mushukchalardan nimasi bilan farq qilishini so`rang. Hayvonlarga bo`lgan muxabbat bolalarni mexrliroq, xozirjavobroq va mexribon qiladi.

Bolalarga hayvon bolalari bilan o'ynashga ruxsat etish mumkin, ammo ularni qiyinamalikni tushuntirish kerak. Bolalar oldida hayvonlarning tagini tozalab, ularga ovqatlar berib, ular bilan erkalanib gaplashing va ular orqali hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik qilish namunasini ko'rsating. Yaylovlarda, qishloq sharoitlarda bolalar bilan o'tlab yurgan qo'y, echki, sigirlarni kuzatish mumkin. Bolalarga uzoqdan turib sigirning ma'rashini, qo'yning berashini, toychoqning kishnashini, echkinging melashini ko'rsating. Sal yaqinroq borib sigir bilan buzoqni solishtiring: sigirlar katta, ularning boshi, shoxi, dumi bor, dumi bilan pashshalarni xaydaydi, ular sekin yuradi, o'tlarni yeydi; buzoqchalari yugirib yurishadi.

Bolalar bilan o'tni toychoq'i bilan solishtirib ko'rib chiqing: u katta, oyoq, quloqlari uzun, dumi uzun, yelkasida yo'llari bor. Echki, quyni kuzatib shunday solishtiring, bolalar ularning o'ziga xos belgilarini, farqini so'zlab berishni taklif eting.

Kichik guruh bolalarini tevarak-atrof tabiati bilan tanishtiring, ularga nisbatan muxabbat, ularni asrab-avaylashni, ularning o'sishi va rivojlanishi uchun qo'lidan kelgan mehnati bilan qatnashish xoxishini tarbiyalashga oid o'yinlar, mashg'ulotlarning namunaviy rejasini, konspektlari bo'yicha mashg'ulotlar olib boring.

O'quvchilar hayvonlarning tuzilishi hayot kechirishi, foydasi, zarar yetkazishi, xozirgi zamon fanining erishgan yutuqlari va boshqa ma'lumotlariga ega bo'ladilar.

Barcha fanlar singari tabiatshunoslikni o'rganish jarayonida o'qituvchining o'quvchilar orasida ta'lim va tarbiya ishlarini yaxshi yo'lga qo'yishdir.

Shunday ekan sinfda o'tilgan yoki o'tilishi lozim bo'lgan mavzularni o'quvchilarning sinfdan tashqari bajargan ishlari bilan uzviy bog'lab olib borishlarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, bilim doiralarini kengaytirishga va amaliy ishlarni bajara oladigan malakalar hosil qilishga imkon beradi. Maktabda sinfdan tashqari ishlarning tarmog'i bo'lgan «qushlar kuni»ni uyushtirish va o'tkazish orqali ham o'quvchilar orasida o'quv tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish mumkin. Shuning uchun ham har bir o'qituvchi «qushlar kuni» ni o'tkazishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yimog'i lozim. O'qituvchi «qushlar kuni»ni o'tkazish orqali har bir o'quvchining tarbiyasiga har tomonlama ijobiy ta'sir qiluvchi omillarni o'z ichiga olgan amaliy ishlarni uyushtirishni rejalashtirmog'i kerak. bunday ishlar qatoriga

o' lka materiallarini o'rganish, ularni muxofaza qilish, mehnatsevarlik hissini uyg'otish, dunyoqarashni shakllantirish, zarar keltiruvchi hayvonlarga qarshi kurashishi va boshqalarni kiritish mumkin.

«Qushlar kuni»ni o'tkazish o'qituvchidan ancha mehnat qilishni talab qiladi. Shunday ekan, o'qituvchi o'zi qiziqishi so'ngra o'quvchilar qiziqishini orttirishi talab etiladi. Maktabda qushlar kunini uyushtirish va o'tkazishda o'qituvchidan tashqari maktab pedagog kollektivining ishtirok etishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Qushlar kuni uyushqoqliq va mazmunli o'tishi uchun o'quvchilar bilan bir necha marotaba mashq qilishlari talab qilinadi.

Qushlar kunini o'tkazishdan bir necha kun ilgari zalni qanday va nimalar bilan jixozlash rejalashtiriladi, shuningdek qushlar kuniga bag'ishlab devoriy gazeta chiqariladi. Unda qiziqarli faktlarning bo'lishi turli qushlarning rasmini chizish va bo'yash kabilar ko'zda tutiladi.

Qushlar kunini o'tkaziladigan kun maktab ustaxonasida tayyorlangan qush inlarini daraxtlarga o'rnatish rejalashtiriladi. Shunday qilib qushlar kuni o'tkaziladigan zal turli sayroqi qushlar, devoriy gazeta va turli qushlarning uyasi , qushlar hayotiga oid kuzatishlar yozilgan kundalik daftarlardan namunalar. Qushlarni muxofaza qilish haqidagi shiorlar, magnitofon tasmasiga yozib olingan qushlar ovozi o'quvchilar ovozini yozib olish uchun mikrofon va boshqalar bilan jixozlanadi.

Sherlarning asosiy mazmuni o'quvchilarda qushlarga bo'lgan muxabbatni oshirish, ularning foydasi va ularni qo'riqlash yuzasidan o'quvchilarda tegishli tushunchalar hosil qilishga, shuningdek, qushlarning hayot kechirishi to'grisida tarqalgan ba'zi bir noto'g'ri fikrlarni fosh qilishga qaratilgandir. Jumladan, «Hakka» she'rida ayrim o'quvchilar orasida saqlanib kelayotgan noto'g'ri fikrlardan biri «hakka og'zidan tuxum quyar emish» degan fikrning noto'g'ri ekanligi yozilgan. «Qanotli do'stlar» she'rini o'qir ekanmiz uzoqdan uchib keluvchi qushlarni o'quvchilar sabrsizlik bilan kutganligi, ularga inlar yasab qo'yilganligi, xasharotlar bilan oziqlanishi, turli xil ovozlar chiqarib sayrashi kabilar haqida yozilgan. Tayyorlangan ma'ruzaning mazmuni ham qushlarning foydasi va ularni muhofaza qilishga qaratilgan bo'lib, mavzular «Qushlar bizning do'stimiz», «Foyda keltiruvchi

va zarar yetkazuvchi qushlar», «Bizga kelib ketuvchi qushlar», «qushlarni muhofaza qiling!» deb nomlanadi.



Qushlar kuni bayramini ochish to`g`arak raisining chiqishi bilan boshlanadi. So`ngra to`g`arak a`zolarining reja asosida chiqishlari boshlanadi.

Birinchi o`quvchi: Merganlikda mendan o`tar kishi yo`q,
Shuning uchun mening ko`nglim doim to`q.
Otgan o`qim xato qilmayman birin,
Yiqitaman qushning har qanday Turin.

Ikkinchi o`quvchi: Halil, nega sen qushlarni otasan?
Nega urib, ularni yiqitasan?
Kashshoflar qushga uya solganda,
Sen qushlarni bezdirib yo`qotasan?

Birinchi o`quvchi: Qo`y o`rgatma menga, do`stim, nari bor,
Qushlarni ko`pin qulataman shu baxor,

Ikkinchi o`quvchi: Qushlar bizning do`stimiz sen bilsang
Urmas eding ular foydasini ko`rsang,
Aytsin Qobil senga yana to`g`risin,
Agar mening so`zimni lof ko`rsang.

Uchinchi o`quvchi: Dustim Halil bu ishingni tashlagin
Senga to`g`ri aytadi, qushni sira otmagin,
Qushlar foyda keltiradi bizga ko`p,
Qushni asrash qoidasin bilgin xo`p,

Birinchi o`quvchi: Men bilmabman qushlarning xech foydasin,
Aytma do`stim, zinxor hech kim bilmasin
Rogatkamni endi buzib tashlayman.
Bu do`stlarni men ham siylayman.

Qushlar kuni bayrami dasturining uchinchi bo`limini yakunlashni to`garak raxbari olib boradi.

Yakunlovchi so`z oxirida maktab direksiyasi bayramda qatnashgan barcha o`qituvchilarga va «qushlar kuni» bayramida o`z chiqishlari bilan qatnashgan o`quvchilarga minnatdorchilik bildiradi.

Tajriba shuni ko`rsatdiki, «Qushlar kuni» bayramini sistemali ravishda o`tkazib borish o`quvchilar qiziqishini tobora orttiradi. Ayniqsa, pastki sinf o`quvchilarida qushlar hayotiga oid adabiyotlar o`qish, kuzatishlar olib borish juda qiziqish uyg`otganligi aniqlandi. «Qushlar kuni» bayramida o`qiladigan ma`ruzalar dastur materialini kengaytirishga qaratilgan bo`lgani uchun o`quvchilarning bilim doiralarini kengayishiga imkon beradi. Masalan, «O`zbekistonga kelib ketuvchi qushlar», «kungi va tungi yirtqich qushlar»kabi mavzular, shuningdek, o`quvchilar qushlar hayotiga oid kuzatish natijalarini eshitish orqali ayrim qushlarning hayot kechirishlari, ularning foyda keltirishlari haqidagi to`liq ma`lumotga ega bo`ladilar. Qushlarni muhofaza qilish haqidagi fikr rivojlanib boradi. Shuning uchun ham maktabda «qushlar kuni» bayramini maktablarda sistemali olib borish har bir biologiya o`qituvchisining diqqat markazida bo`lishi maqsadga muvofiqdir.

To'garak ishini planlashtirish. Ish planini sinchiklab ishlab chiqish to'garak ishida katta ahamiyatga ega, bu ish plani yillik, yarim yillik, choraklik qilib tuzilishi mumkin. To'garak ishining hamma turlari rejasini o'z aksini topishi kerak. Bunday rejasi tuzishda to'garak rahbarlari yosh tabiatshunoslarning qiziqishlari, yetuklik darajasi, imkoniyatlariga qarab ish ko'radi. Reja tuzishga to'garak faol jalb etiladi. Keyin reja yosh tabiatshunoslarning navbatdagi mashg'ulotida muhokama qilinadi.

Yosh tabiatshunoslarning har qanday ishini qanday bo'lmasin biror mavzuga bog'lash mumkin. Masalan, to'garakda qanday bo'lmasin biror hayvonni sotib olish va unga katak yasashga qaror qilingan bo'lsa, ish rejasiga «Mayda sut emizuvchi hayvonlarni tutqunlikda boqish» mavzusini kiritish maqsadga muvofiqdir, agar sinf, maktab kirish joyi va boshqalarni ko'kalamzorlashtirishga qaror qilingan bo'lsa, «Xonaki o'simliklarni ko'paytirish va ularni parvarish qilish» temasini olish kerak.

Esh tabiatshunoslar ishini to'garak rejasidagidagi mavzularga muvofiq tashkil etish rejadagi har qanday mavzuga doir ishni tashkil etishda ko'pgina o'qituvchilar quyidagi tartibga amal qilishadi:

1. Odatda nazariy harakterda bo'ladigan kirish mashg'uloti (yo'l-yo'riq beriladigan mashg'ulot).
2. Yosh tabiatshunoslarning mustaqil ishi (asosan tadqiqot ko'rinishida bo'ladigan ish).
3. Hisob mashg'uloti.
4. Devoriy gazetalar, jurnallar chiqarish, ish natijalari yuzasidan ko'rgazmalar tashkil etish.

Kirish mashg'ulotida o'qituvchi bo'lg'usi ishdan kutiladigan maqsadni o'rta qo'yadi, ishning mazmunini ochib beradi, bunda o'quv kinofilmlari, diapozitivlar, diafilmlardan foydalanadi, mashg'ulot mavzusiga doir tushunarli adabiyotni ko'rsatib beradi va hokazo. Ana shundan keyin individual mashg'ulotlar yoki grupp mashg'ulotlarini yosh tabiatshunoslarga taqsimlab beradi va yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi.

To'garak mashg'ulotiga tajriba va ko'zatuvar o'tkazib kelishi kerak bo'lgan yosh tabiatshunoslar mashinkada yozib, tayyorlab berilgan yo'l-yo'riqlarni olishadi.

Yosh tabiatshunoslarning mustaqil ishi tabiatda, tirik tabiat burchagi, teplisia, o'quv-tajriba uchastkasida tajriba va ko'zatuvarlar o'tkazish, ilmiy-ommabop adabiyot

bilan ishlab, keyin referatlar to'zish, ko'rgazmali qo'llanmalar tayyorlash, biologiyadan sinfdan tashqari ommaviy ishlarni tashkil etishdan iborat bo'ladi. Mashg'ulotda olgan topshiriqlarini yosh tabiatshunoslar garchi individual holda, ya'ni har qaysisi o'zicha bajarsada, ular to'garak rahbaridan doimo qo'shimcha tushuntirishlar olib turishlari mumkin, to'garak rahbari ularning mustaqil ishi qanday berayotganini so'rab-surishtirib turishi kerak.

Hisobot mashg'ulotida o'quvchilar o'zlari bajargan mustaqil ishlari to'g'risida doklad qilishadi, kolleksiyalarni namoyish etishadi, kuzatishlar kundalik daftarlarini o'qib berishadi, o'simliklar, hayvonlarning fotosuratlarini namoyish qilishadi va hokazo. Shu mashg'ulotning o'zida to'garak kollegiyasga uning materiallari yuzasidan devoriy gazeta chiqarish topshiriladi. To'garakning hisobot mashg'ulotlari rayiga bir-ikki marta o'tkazib turiladi. Bularni ochiq mashg'ulotlar qilib o'tkazish o'rishgadir. Ana shunday mashg'ulotni o'tkazishdan bir necha kun avval mashg'ulot temasi va uning o'tkaziladigan vaqtini ko'rsatib, bunga qiziqadigan hamma o'quvchilarni taklif etuvchi chiroyli e'lon osib qo'yiladi. Maktabdagi to'garakning umumiy mashg'ulotlari (jumladan, hisobot harakteridagi mashg'ulotlar ham) odatda ikki haftada bir marta o'tkazilsa, mavzularga doir individual ish topish ma'lum natijalar qo'lga kiritilguncha qancha vaqt o'tsa, shu vaqtgacha olib borilaveradi.

Sinfdan tashqari ishda o'quvchilar qotib qolgandek bir xillikni sezishmaydigan bo'lsa, ana shundagina bu ish ular uchun qiziq bo'lib qoladi. Shu munosabat bilan yosh tabiatshunoslarni oddiy tajriba va kuzatishlarni bajarishdan tadqiqot harakteridagi tobora murakkab ishlarni o'tkazishga asta-sekin undab borish kerak.

To'garak ixtisosini tanlash. Maktab ishi amaliyotida har xil biologik to'garaklar uchraydi. Bularning ba'zilar har xil biologik mavzudagi mashg'ulotlarni olib borsa, boshqalari ancha tor mazmundagi ishlarni olib boradi. Chunonchi, maktablarda yosh botaniklar va qishloq xo'jaligi tajribakorlari bilan bir qatorda xonaki gulchilik yoki hatto kaktuslilar to'garaklari ham bo'ladi, zoologiya to'garaklaridan tashqari akvariumchilar, entomologlar va boshqa to'garaklar ishlaydi.

Fikrimizcha, biologiyaga qiziqadigan har qanday o'quvchi tirik tabiat to'g'risida har tomonlama bilimga ega bo'lishi kerak va shuning uchun to'garak ishining eng boshida uni tor ixtisosga ajratish hali erta bo'ladi. Ko'pgina biologiya

o`qituvchilarining ish tajribasi shuni ko`rsatadiki, to`g`araka a`zolari avvaliga juda turli-tuman muammolar bilan tanishib chiqib, keyin mashg`ulotlar prosiessida o`zlarining qiziqishlariga ko`proq to`g`ri keladigan sohalarni o`zlarining ongli ravishda tanlab olsalar, ana shundagina maktabda to`g`araka ishi muvoffaqiyatli boradi. Bunday to`g`araklarning rejaga asoslangan ishi to`g`araka ishining ta`lim-tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga yordam berish bilangina qolmay, balki umuman biologiya o`qitishni yaxshilashga ham yordam beradi.

Sinfdan tashqari ommaviy tadbirlar (olimpiadalar, bayramlar, kechalar, qiziqarli biologiya soatlari, tabiat muhofazasiga doir ish va boshqalar) maktabdagi yosh tabiatshunoslar, biologiya o`qituvchisi tomonidan tashkil etiladi.

Maktab olimpiadalari bir necha davrada o`tkaziladi. Olimpiada o`tkazilishidan odatda bir oy ilgari yosh tabiatshunoslar gruppasi uni o`tkazish tartibi to`g`risida varaka chiqarib, tavsiya etiladigan adabiyot ro`yxatini osib qo`yadi. Olimpiadalarini tashkil etishning taxminiy tartibini tasvirlab o`tmiz.

Birinchi davrani o`tkazar ekan, o`qituvchi doskaga savollarni yozib qo`yadi va bularga yozma javob berishni o`quvchilarga taklif etadi, har bir javobga keyin to`rt balli sistema bo`yicha baho beradi: to`la-to`kis javob yoki masalaning o`ziga xos tarzda hal qilinganligiga 3 ball, to`g`ri javobga 2 ball, sal aniqmas joylari bor javobga 1 ball, noto`g`ri javobga 0 ball baho beradi. Savollarga bergan javoblari uchun o`quvchilarning olgan baholari jamlanadi. Bundan tashqari, mazkur ishini bajarish uchun o`quvchi sarflagan vaqt ham hisobga olinadi (ishlarni birinchi bo`lib topshirgan 25% o`quvchilarning hammasi qo`shimcha 3 ball, ikkinchi navbatda topshirgan 25% o`quvchilar qo`shimcha 2, uchinchi navbatda topshirgan 25% o`quvchilar qo`shimcha 1 ball oladi). Olish mumkin bo`lgan eng ko`p miqdor ballarning kamida 70% ni to`plagan o`quvchilar ikkinchi davrada qatnashish huquqiga ega bo`lishadi.

Ikkinchi davrani o`tkazish uchun tirik ob`ektlar, kolleksiyalar, qo`l preparatlar, tulumlar, tablislilar, rasmlar, o`simlik va hayvonlarning fotosuratlarini, anatomik preparatlar tayyorlanadi. Bularning hammasi «Botanika», «Zoologiya», «Odam anatomiyasi va gigienasi», «Umumiy biologiya» deb bo`lim-bo`limlar holida joylashtiriladi, bordiyu, olimpiada, masalan, faqatgina zoologiyadan o`tkaziladigan

bo'lsa, u vaqtda kerakli narsalar mana bunday qilib joylashtiriladi: Umurtqasizlar (asosiy e'tibor hasharotlarga beriladi). 2. Umurtqalilar — baliqlar, quruqda va suvda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sutemizuvchilar.

Har bir bo'limda olimpiada qatnashchilari hayvon yoki o'simlikning nomini aytishni yo bo'lmasa rasmda tasvirlangan izning qanday hayvon izi ekanligini aytib berishni, yoxud qanday bo'lmasin biror ob'ekt to'g'risida qisqacha so'zlab berish va boshqalarni talab qiladigan bitta savolli biletlarni olishadi. Bu javoblarga ham to'rt balli sistema bo'yicha baho beriladi. Olimpiada g'oliblari maktab bo'yicha buyruqqa muvofiq taqdirlanadi va mukofotlanadi.

Olimpiadaning birinchi davrasini sirdan o'tkaza ham bo'ladi. Bunda maxsus chiqarilgan byulletenda o'quvchilarga rasmlar va fotosuratlarda tasvirlangan o'simliklar, hayvonlar nomini aytib berish, izlar qaysi hayvonniki ekanini ko'rsatish, u yoki bu organlarning nomini aytib, funksiyalari to'g'risida so'zlab berish taklif etiladi va hokazo. Har bir topshiriqning oxirida uning to'g'ri javobi uchun beriladigan sondagi ochkolar qo'yiladi. Byulletenda adabiyot ko'rsatilgan bo'ladi. Savollarga yozma holda berilgan javoblarni o'quvchilar yashikka tashlaydilar, keyin esa o'qituvchi va jyuri a'zolari — yosh tabiatshunoslar — bu javoblarga baho berishadi. Sirtqi davrada qatnashgan barcha o'quvchilarning hammadan ko'p ochko olgan uchdan bir qismi ikkinchi davraga qo'yiladi, bu davra yuqorida bayon etilgandek qilib o'tkaziladi.

KVN (o'tkir zexnlilar klubi) bir nechta sinfdan tanlab olingan ikki komandani o'z ichiga oladi, shu komandalarning har biri musobaqa boshlanishidan 2—3 hafta ilgari raqib komanda uchun tabriknomalar, savollar, topishmoqlar tirik organizmlar to'g'risidagi she'rlar va hikoyalar tayyorlaydi. Yosh tabiatshunoslar orasidan tayyorlanadigan boshlovchi ham KVN ga oldindan tayyorlanadi.

Musobaqalar vaqtida komandalarning ishiga baho berish uchun jyuri saylanadi, uning hay'atiga to'garak rahbari va yosh tabiatshunoslar to'garagining a'zolari, KVN da aktiv ishtirok etadigan o'quvchilarning sinf rahbarlari kiradi. Barcha ishlarga biologiya o'qituvchisi, KVN tashkilotchisi rahbarlik qilib boradi. Uqituvchi komanda a'zolariga tegishli adabiyotni tavsiya etadi, tayyorgarlikning qanday borayotgani

bilan qiziqadi, qanday qilinsa, ularning rejalarini qiziqroq qilib amalga oshirish mumkinligi to'g'risida maslahat beradi. KVN (o'tkir zexnlilar klubi) bir nechta sinfdan o'quvchilar taklif etiladi. KVN o'tkaziladigan vaqt oldindan ma'lum qilinib, maktab: vestibulyga chiroyli e'lon osib qo'yiladi. «Jonkuyarlar» ning KVN da qatnashuviga ham baho qo'yiladi, kaysi komandaga «son kuydirishgan» bo'lsa, ularning ballari o'sha komanda olgan ballar hisobiga qo'shib boriladi. KVN ni metodik jihatdan ishlab chiqishga taxminiy misollar mazkur qo'llanmaning tegishli boblarida ko'zdan kechirib chiqiladi.

Qiziqarli biologiya soatlari odatda har bir sinfdan tashkil etiladi. Har bir mashg'ulot akademik soat davomida o'tadi.

Har bir qiziqarli biologiya (botanika, zoologiya va hokazo) soatini o'quvchilar oldindan tayyorlashadi. Uqituvchi tomonidan tavsiya etilgan adabiyotdan ular zarur ma'lumotlarni tanlab olib, joy-joyiga qo'yib chiqishadi, ko'rgazmali qo'llanmalar tayyorlashadi. Mashg'ulotlar shaklan o'yin tarzida o'tkaziladigan bo'lsa (masalan, sayohatlar ko'rinishida), boshlovchilar (kapitanlar) tayinlanadi.

Mashg'ulot vaqtida boshlovchi o'quvchilarga sayohat qilishni taklif etadi, to'xtash joylarini aytib beradi, shu joylarda to'xtab turilgan paytda yosh tabiatshunoslar o'simliklar (qiziqarli botanika soatlarida), hayvonlar (qiziqarli zoologiya soatlarida) to'g'risida u yoki bu qiziq ma'lumotlarni ma'lum qiladi va hokazo. Boshlovchi qanday bo'lmasin biror xil biologik topishmoqlarni topish, krossvordlar, chaynvordlarni echish, viktorina savollariga javob berishni o'quvchilarga taklif etadi.

Har turli kechalar ham xuddi shu tariqa tashkil etiladi. Kechani o'tkazishdan oldin zo'r tayyorgarlik ishlari olib boriladi: kecha programmasi ishlab chiqiladi, doklad va beriladigan ma'lumotlar mavzulari a'zolar orasida taqsimlanadi, kechaning qiziqarli qismi (viktorina savollari, biologik o'yinlar, krossvordlar, chaynvordlar va boshqalar), badiiy havaskorlik (she'rlar, qo'shiqlar, mo'zikali nomerlar, raqslar) tayyorlanadi, zal chiroyli qilib bezatiladi, o'quvchilarning ishlari ko'rgazmaga qo'yiladi.

Odatda kecha o'tkazilishidan bir oy oldin maktabga chiroyli e'lon osilib, barcha o'quvchilarni unda faol ishtirok etishga da'vat qilinadi, har turli savollar, topshiriqlar

taklif etiladi, bularga oldindan tayyorlanish kecha qatnashchilari faolligini kuchaytirishga yordam beradi.

Ko'pgina tabiatshunoslik kechalari ijtimoiy-foydali ish (Qushlar kuni, hosil bayrami, Urmon kuni va boshqalar) ga yakun yasash kechalari bo'ladi.

Har bir ommaviy ijtimoiy-foydali kompaniya oldidan yosh tabiatshunoslar ish hajmi va tabiatini aniqlab, zarur yo'l-yo'riqlarni olishadi, tegishli malakalarni hosil qilishadi, keyin esa sinflarga bo'linib, o'quvchilarni qilinishi kerak bo'lgan ish bilan tanishtirishadi, ishni bajarish vaqtida esa o'quvchilarga yordam berib borishadi. Masalan, o'rmon xo'jaligi uchun daraxt va buta urug'larini yig'ish yuzasidan o'tkazilishi kerak bo'lgan ish oldidan yosh tabiatshunoslar biror xildagi urug' va mevalarni qaerlardan yig'ish mumkinligini aniqlab olib, o'quvchilarni tegishli daraxt va butalar bilan, meva va urug'larining tashqi ko'rinishi bilan, bularni yig'ish va saqlash muddatlari va qoidalari bilan tanishtirishadi, meva va urug' kolleksiyalarini o'sib qo'yishadi, bu ishning muhimligini ko'rsatadigan maxsus byulletenlar chiqarishadi. Meva va urug'lar yig'iladigan kunlarda yosh tabiatshunoslar o'quvchilarning ma'lum bir gruppasiga birkiriladi va ishni bajarishga sinf rahbari yordam berib boradi.

Ommaviy ijtimoiy-foydali tadbirlarning ba'zilar kompaniya harakterida bo'lsa, ba'zilar butun yil bo'yi o'tkazib turiladi. Bularni tashkil etish va o'tkazish ishning o'z xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ushbu qo'llanmaning tegishli boblarida batafsil ko'zdan kechirib chiqiladi.

Kuzatishlar kundaligi. Sinf dan tashqari ish jarayonida ko'zatilayotgan hodisalarni yozib va rasmga tushirib bora olish malakasi va ehtiyojini o'quvchilarda paydo qilib borish zarur, Har bir kuzatuvchida, u individual tajriba va kuzatishlar olib boradimi, yoki qanday bo'lmasin biror umumiy mavzu ustida ishlaydimi, baribir kundalik bo'lishi kerak. Kuzatishlarni yozib borish ko'zatilayotgan materialni yaxshi bilib olishga, aniq bo'lmay qolgan masalalarni belgilab qo'yishga imkon tug'diradi, yo'l qo'yilgan xatolarni topib olishga yordam beradi.

Kundalik yozib borish ayniqsa endi o'rganayotgan tabiat tadqiqotchisi uchun qiyin ish. Ko'pgina o'quvchilar ko'rgan narsalarini yozib borishni uddalay olmaydi

va shu sababdan buni yoqtirishmaydi. Kundalikda nimalarni qayd qilib borish kerakligini bilmaslik ko`pincha shunga sabab bo`ladi.

Kundalikni yozib borishga alohida e`tibor bermoq kerak. Buning uchun yo`l-o`riqlar beriladigan topshiriqlarda o`quvchilarning nimalarni yozib borishi ko`rsatib qo`yilgan bo`lmog`i lozim. Kuzatish kundaliklar bilan imkoni boricha tez-tez tanishib turish va ularda qanday kamchilik borligini, ko`rilgan hodisa to`g`risida yana nimalarni yozish mumkin ekanligini qayd qilib borish o`rinlidir. Yaxshi deb hisoblangan kundaliklardagi yozuvlarni to`g`arak mashg`ulotlarida o`qib berish maqsadga muvofiqdir. Eng yaxshi kuzatishlar uchun maxsus konkurslar uyushtirish ham bu ishga yordam beradi. Konkurs ishtirokchilariga tirik tabiat burchagidagi qanday bo`lmasin biror hayvon ustidan yoki uy, yo bo`lmasa teplisiada o`stirilayotgan biror o`simlikning o`sishi ustidan kuzatish olib borish va shu kuzatish asosida hikoya yozish taklif etiladi. Kuzatishlar yaxshi ifodalangan tasvirlarni har doim yosh tabiatshunoslar devoriy gazetasiga berib turish kerak.

II BOB SINFDAN TASHQARI ISHLARDA O`QUVCHILARNING TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING SHAKL VA METODLARI

1- & Sinfdan tashqari mashg`ulotlarda interaktiv ta`limiy o`yinlarni tashkil etish metodikasi

O'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur. Barcha shakllardagi sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ichki imkoniyati o'quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatga faol jalb qilish, ularning tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantirish, individual qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlariga pedagogik rahbarlikning xususiyati ularga faqat dars mashg'ulotlarida emas, balki ijtimoiy tashkilotlar sinfdan va maktabdan tashqari har xil tadbirlar, o'quvchilarni texnik ijodkorlik va qishloq xo'jalik tajribachiligiga bevosita jalb etish orqali ham tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini amalga oshirishdir.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda kasbga yo'naltirish ishlari texnologiyasining funksional tuzilmasi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarining, jamiyatda mavjud kasblar doirasining kengayib, chuqurlashib hamda murakkablashib borishi o'z-o'zidan shaxsga talim berish, dunyoqarishini shakllantirish, kasb tanlashga yo'llash hamda ishlab chiqarish jarayonidagi faol ishtirokining kafolati bo'lgan kasbiy malakalarini shakllantirish jarayoniga nisbatan yangicha samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam bo'luvchi ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ma'lumki, ta'lim tizimi jamiyatda shakllangan muayyan ehtiyoj asosidagi ijtimoiy buyurtmani bajarishga yo'naltiradi. Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasida barkamol avlod shaxsini shakllantirish, uni kelajak hayotda o'z o'rnini topishi va raqobatbardosh kasb egasi sifatida tarbiyalash talabi ijtimoiy buyurtma sifatid yuzaga kelmoqda. Davr talabi ta'lim oluvchini ta'lim jarayoninig sust tinglovchisi bo'lishdan faol ishtirokchisiga aylantirishni taqozo etmoqda. O'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik roli quyidagi pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi:

-o'quvchida bo'lajak kasbi to'g'risidagi bilimlarni va ma'lumotlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojini qaror toptirish;

-kasb tanlashga nisbatan ongli yondashuvni hakllantirish; -

mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;

-o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, nazariy va amaliy bilimlar mohiyatini tahlil etish, ular borasida xulosalar chiqarish umumlashtirish hamda ularni o'z amaliy faoliyatiga tadbiiq etish ko'nikmalarini yuzaga keltirish va takomillashtirish;

-o'z-o'zini nazorat qilish, qiyosiy baholash, tahlil qilish sifatlarini shakllantirish; - tashqi muhit ta'sirisiz o'zi tanlagan kasbga qiziqishinshakllantirish; O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda ta'lim shakli, metod va vositalarning ahamiyati katta. Zero, ular o'quvchining imkoniyatlarini yuzaga chiqarish bilim, ko'nikma va malakalarini bo'lajak faoliyat sohasi talablari asosida shakllantirish uchun shart-sharoit yaratib beradi.O'z navbatida o'quvchilarning yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, dunyoqarashining ko'lami hamda ularning faolligi samarali, ilg'or, no'ananaviy ta'lim shakli, metod va vositalarini tanlash, ulardan maqsadga muvofiq darajada foydalanish uchun turtki bo'ladi.

Ta'lim jarayonining maqsadi o'quv rejasi, dastur, shuningdek, darslik qo'llanmalarda belgilab berilgan muayyan mavzu hamda mashg'ulot turning o'ziga xos jihatlari, mavjud pedagogik shart-sharoitlar o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlari, ularning hayotiy ehtiyoji va qiziqishlari, o'qituvchining bilim va malaka darajasi, dunyoqarashi, ijodkorligi vaziyatni baholash hamda unga muvofiq tezkor harakat qila olish layoqati va hokazo omillarni inobatga olish asosida belgilanadi.

Ta'lim jarayonining mazmuni ta'limning umumiy maqsadini amalga oshirish, xususiy maqsadlarga bosqichma-bosqich erishish imkoniyatini yaratadi. Ta'lim mazmuni ta'limiy, me'yoriy hujjatlar talablari, o'quv manbaalarining mazmuni, ularda ilgari surilgan g'oyalari asosida ishlab chiqildi. Ta'lim jarayonining mazmuni shaxsga ta'lim berish, uni tarbiyalash va rivojlantirish kabi vazifalarni ijobiy hal etishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonining mazmuni asosida ta'limning shakl va metodlari belgilanadi. Ta'lim muassasalari oldida turgan vazifalarning hal etilishi mashg'ulot mazmuni, ta'lim shakli, metodlari hamda vositalarining samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Ta'lim shakli, metodlari va vositalari o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash, ularda chuqur bilim dunyoqarashni hosil qilish ishiga xizmat qiladi.

Ta'lim shakli o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum tartibda tashkil etiladigan faoliyatlarining tashqi ifodasidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning tashkil qilinadigan darsdan tashqari mashg'ulotlarda qatnashish davri uning umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi butun ta'lim davrini qamrab olgan bo'lib, bitiruv malakaviy ishi davomida ishlab chiqilgan

sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ekologik tafakkurini shakllantirish ta'lim jarayoni bosqichlarig mutanosib ravishda amalga oshirildi.

Jumladan, sinfdan tashqari mashg'ulotlar shakllaridan biri hisoblangan sayohatlarni tashkil qilishda biz ularning dars, shuningdek, amaliy mashg'ulotlardan tubdan farq qiluvchi quyidagi jihatlariga e'tibor qaratdik:

a) o'tkaziladigan sayohatlarning barchasiga o'qituvchirahbarlik qilsada u sayohat obyektlarining barchasi bilan yaxshi tanish bo'lmasligi mumkin, bunday hollarda sayohat uyushtirayotgan korxonona, muassasa yoki xo'jalikning masul vakili mashg'ulot olib boradi;

b) sayohat muddati turlicha bo'lib, ularni tashkil qilishda mintaqaviy, mavsumiy va sayohat uyushtiriladigan obekt xususiyatlaridan kelib chiqiladi. Jumladan, qishloq xo'jalik korxononasiga hosilni yig'ishtirib olish davrida, avtokorxonalariga texnikk qarovlarni o'tkazish paytida sayohat uyushtirilishi eng yuqori unumdorlikka erishish imkonini beradi;

v) o'qituvchi yoki sayohat uyushtirilgan obekt vakili bo'lgan ekskursavodninga rahbarlik usuli va o'quvchilarning faoliyati turlicha bo'lishi mumkin.

Ta'limning noan'anaviy shakli sifatida tashkil etiladigan bahs-munozara , davra stoli, matbuot konferensiyasi muayyan fanning muhim mavzulari yuzasidan tashkil etilib o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini ilgari surish, uni asoslash hamda himoya qilish qobiliyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu kabi darsning tashkil etilishida maqsadning aniqligi, shuningdek, o'qituvchilarning faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

Ko'rgazma va mo'jizalar maydoni shaklida o'tkazilayotgan darslar bellashuv xususiyatiga ega bo'lib, oquvchilarni faollikka undaydi. Kasb tanlashga yo'llashda mashg'ulotlarning muvaffaqiyati uning shakligagina

emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy - amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

O'qiyish metodlari mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchi va o'quvchi

faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib boorish kerakligini hamda shu jarayonda o'quvchilar qanday ish harakatlarini bajarishlarini kerakligini belgilab beradi.

Shu o'rinda hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innavatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday metodlarni nafaqat dars jarayonida, balki darsdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sichanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivini o'stiradi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda innavatsion metodlardan foydalanib darslarni tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur.

Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Metod tanlashda ko'proq interaktiv metodlarga e'tibor qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. (Interaktiv so'zi inglizcha-inreatsion yani, inter-aro, o'zaro, ast-harakat ma'nosini anglatadi). Interaktiv usullar- bu o'zaro harakat yani hamkorlik asosida o'qitish demakdir. Interaktiv usullarning 4 asosiy turi mavjud. Bular:

- kognitiv usullar;
- o'yinlar, eksperimental faoliyat;
- ishbilarmonlik o'yinlari, modellashtirish;
- amaliyot orqali o'qitish, bevosita faoliyat.

Interaktiv mashg'ulotning asosiy shakllari: katta doira, charxpalak, akvaruim, kichik guruhlarda ishlash va h.k.

Interaktiv mashg'ulotning asosiy usullari: aqliy hujum, ishchanlik o'yini, roli o'yin, munozara, taqidiy fikrlash, boomerang, zig-zag yoki arra, zanjir, sinkveyin, pinbort, muzyorar va h.k.

Shuni ta'kidlash zarurki , interaktiv mashg'ulotlarda shakl va usullar birgalikda mavjud bo'lib, ulani shartli ravishdagina ajratish mumkin.

Interaktiv mashg'ulotlar aniq rejalashtirilgan holda dars madsadini belgilab, dars loyihasi va algoritmini ishlab chiqilgandan keyingina amalga oshiradi.

Interaktiv mashg'ulotning barchasida ham o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi.

Masalan , biror bir mavzuni o'rgatishda uni modellashtirish qismida o'qituvchi o'quvchilarga modelni namoyish qilish oldidan aqliy hujum metodidan foydalanish mumkin. Ya'ni o'quvchilar qo'yilgan muammoni qanday tushunishlari va ko'nikmani qanday egallashlari mumkinliklari ulardan so'ralib, ularning fikrlari umumlashtriladi. Bunda o'quvchialr fikri mutlaqo tanqid qilinmaydi. Bunda amaliy boshqaruv qismida o'qituvchi „Hamkoringa o'rgat“ metodidan foydalanishi mumkin. Bu metod darsni optimal tashkil etishga imkoniyat yaratib, o'quvchilarning o'z faoliyatini tanqidiy nazorat qilish va xatolarni bartaraf etishga o'rgatadi. Uni qo'llash quyidagicha:

Sinf birinchi va ikkinchi hamkor qismlarga bo'linadi. Darsni o'tish modelidan foydalanib birinchi hamkor ikkinchisiga, ikkinchi hamkor birinchisiga modeldagi qismlarni o'rgatadi. O'qituvchi o'quvchilarga ta'lim metodlari va vositasida model qismlarini avval tushuntiradi, keyin ko'rsatadi. O'quvchilar o'qituvchi aytgan va ko'rsatganini takrorlaydi bajaradi. O'qituvchi sinfni nazorat qilish uchun o'ziga ixtiyoriy 2 nafar hamkorni tanlaydi. O'qituvchi o'z hamkoriga modelni bosqichmabosqich bajartirib ko'radi. Tushunmaganini tushunib o'rganishlariga yordam beradi. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, o'quvchilarning darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interaktiv metodlar o'qish motivini rivojlantirishga kata yordam beradi. Quyida shunday interaktiv metodlardan namunalar keltiramiz:

Kichik guruhlarda ishlash metodi Bularga „Fikriy hujum“ , “Dumaloq stol” , „Uch bosqichli intervyu“ va boshqalar. Bu metodlar bo'yicha ishlash uchun bir necha kishidan iborat guruhlar tuzib, ishonch vaziyatini vijudga keltirish, oshkora muhokama uchun halal beradigan psixologik keskinlikni bartaraf etish zarur. Ushbu guruh metodlari fikrlash doirasini kengaytirib, mavjud cheklovni nazardan qochirib turish, fikrlash faoliyati hatakatchanligini rivojlantirish, o'quv faoliyatini jadallashtirishga qaratilgan. Maqsadi:

- o'quvchilarni ko'proq jalb etish va ularning bir-biridan o'rganishiga imkon berish;

- o'quvchilarga o'z g'oyalari va fikrlari bilan ko'proq o'rtoqlashish uchun imkon beradi.

Fikriy hujum metodi. Metodning asosiy qoidalari:

- g'oyalarni rivojlantirish;
- eng ko'p sonda takliflar olish;
 - har tomonlama dalil isbotlar keltirmasdan turib qisqa fikrlarni bayon qilish;
 - sinf o'quvchilarini g'oya beradigan o'quvchilarga va ularni ishlab chiqadigan o'quvchilarga bo'lish.

Bu metod o'quvchini o'z nuqtai - nazarini isbotlash, himoya qilish, har qanday vaziyatda eng ma'qul yechimni toppish muloqot olib boorish, himoya qilinayotgan fikrning to'g'riligiga hammani ishontirishga o'rgatadi.

O'qituvchi topshiriqni tahlil qilishda har bir o'quvchi qatnashadigan bo'lishini kuzatib boradi, bunda javoblarning birortasi ham izohlab

o'tilmaydi va o'rinzis deb ham rad etilmaydi. Guruhda variantlar qolmaganidan keyingina muhakamaga kirishish mumkin.

Metodning maqsadi- guruhdan qisqa vaqt ichida ko'p miqdorda variantlarni olish, o'quvchilar nimalarni bilishini aniqlash. Mashg'ulot davomida muammoni hal eta oladigan g'oyalar taklif etilishi, umumiy tajriba

yuzasidan fikr alamshish uchun zamin yaratilishi va o'quvchilar istagini bildirishi mumkin. Bu jarayon mohiyati shundan iboratki guruhga mavzu, savol yoki tugallanmagan taklif beriladi, guruh a'zolari bir necha daqiqa davomida shu mavzu yuzasidan gaplashib , miyasiga nima kelsa, shularning

hammasini aytadi va tinglaydi, bo'r bilan taxtaga yoki dafratga yozib boorish tavsiya etiladi. Gaplarning hammasi ular qanchalik noaniq, bemani yoki bahsli bo'lmasin, yozib qo'yiladi. Hamma o'z fikrini muhakama qilmasdan turib bayon qiladi, chunki maqsad ko'p miqdorda va xilma-xil takliflar olishdir. Bu paytda tanqid bo'lmaydi va hech qanday baholar berilmaydi.

Metodning qiymati shuki , sinf o'quvchilarini birlashtirib yaktil qiladi har bir qatnashchiga uning taklifi yozib olishga arzugulik ekanligini sezish

uchun imkon beriladi . Bu narsa muammoni yechishni musaboqaga aylantirmasdan birgalikda bajariladigan ishga aylantirishga imkon tug'diradiki, bunda guruhning boshqa bir a'zosi emas, muammoning o'zi asosiy raqib bo'lib qoladi. Shunisi muhimki guruhning qiladigan hatti - harakatlarini o'qituvchi fikriy hujumning eng boshida tushuntirib berishi kerak.

„ Fikri hujum” metodini tadbiiq etish uchun tavsiyalar:

- u mavzuga mos keladigan bo'lishi uchun uni o'tkazishga yaxshi tayyorlanish;

- guruh oldida muhokama yuritish uchun mavzuni aniq ta'riflab bering;

- „ Fikri hujum” odatda og'zaki shaklda bo'lib o'tadi o'qituvchi savol beradi, o'quvchilar esa munozaraga tushmasdan o'z fikrini galma-gal bayon qilishadi, bunda hamma o'z fikrini aytib bo'lishi kerak;

- g'oyalarning hammasini barchaga namoyish qilib ko'rsatib qo'yilmaguncha ularni muhokama qilmaslik nihoyatda muhim;

- jarayonining tartibi va maqsadini o'quvchiga tushuntirib qo'yish

lozim;

- g'oyalar ro'yxati kimdagi uzunroq bo'lsa o'sha yaxshi hisoblanadi.

2-& Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida individual va to'garak ishlarini tashkil etish metoodikasi

O'rta umumta'lim maktab o'quvchilari ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash uchun o'qituvchi va tarbiyachilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlar imkoniyatidan keng ravishda foydalanadi.

Sinfdan tashqari ishlarga turli anjumanlar, kechalar, o'tkir zehnlilar musabaqasi, ekskursiyalar o'tkazish, kinoteatrlarga borish, zavod va fabrikalarga ekskursiya tashkil etish, devoriy gazetalar chiqarish va boshqalar kiradi.

Sinfdan tashqari ishlar ikki turga bo'linadi: ta'limiy va tarbiyaviy. Sinfdan tashqari ta'lim ishlariga maktabda ma'lum fan yuzasidan tashkil etiladigan ishlar: to'garaklar, olimpiyadalar va kechalar kiradi. Biz ushbu malakaviy

ishimiz mavzusi muammosi yuzasidan sinfdan tashqari tashkil etiladigan ishlarga ko'proq to'xtalamiz. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadi va vazifasi o'quvchilarning axloqiy, mehnat, estetik tarbiyasini yaxshilashdir. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchi qobiliyatini rivojlantiradi, o'qishga bo'lgan havasini oshiradi va ular shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun imkoniyat tug'diradi.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular maktab bilan hayot aloqasini mustahkamlaydi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish san'atkorlar, ishchilar, olimlar, dehqonlar hayoti bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. O'quvchilar turli sohada ishlayotgan kishilar bilan tanishib, ular kabi vatanga, xalqqa xizmat qilish istagi paydo bo'ladi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar ixtiyoriy harakterga ega. Bolalar bunday ishlarga o'z xohishlari bilan ishtirok etadilar. Bir kishi bir necha tadbirlarda ham qatnashishi mumkin. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish tog'ri emas. Ular o'z xohishlari va qobiliyatlari asosida chora tadbirda ishtirok etishlari mumkin. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati va uning ijtimoiy foydali yo'nalishi. Darslardan tashqari maktabda bolalar bilan darsdan tashqari vaqtlarda har xil mashg'ulotlar: ekskursiyalar to'garak ishlari, ertaliklar, sinfdan tashqari o'qishlar, qiziqishlar bo'yicha klublar va boshqa ishlar o'tkaziladi. Bu ishlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida ularning bilishga qiziqishlarini uyg'otish va shuningdek, maktab dasturini kengaytirish hamda to'ldirish maqsadida amalga oshiriladigan chetdagi ko'pchilik faoliyat shakli bo'lgan sinfdan tashqari ishlar nomini oladi.

Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va aniqlashtirish, tabiatni o'rganishga qiziqish uyg'otish, o'quvchilar faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, bu vaqtni tashkillashtirish imkoniyatini beradi. Sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, chunki o'quvchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Ular moddiy dunyoga qarashni va mehnat madaniyatini shakllantiradi, bilishga qiziqishni va mustaqil kuzatish ko'nikmalarini

rivojlantiradi, jamoatchilik hissini va tabiatga muhabbatni tarbiyalaydi. Tabiatshunoslik bo'yicha yo'lga qo'yilgan sinfdan tashqari ishlar o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biridir.

Uzoq muddatli tajribalar qo'yish, gerbariy va kolleksiya uchun material yig'ish, model, maket va boshqa ko'rgazmali qurollar tayyorlash, jonli tabiat burchagi va o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlar kabi sinfdan tashqari, ishlarining shakllari tabiatni o'rganishni hayot bilan bog'lash va o'quvchilarni mehnatga tayyorgarlik uchun ahamiyatli bo'lgan amaliy uquv va ko'nikmalar bilan qurollantirish imkoniyatini beradi.

Bolalarning kuzatishlari va o'qituvchining tushuntirishlari bilan olib boriladigan qishloq xo'jaligi bo'yicha amaliy ishlari tabiatni boshqarish, inson manfaati uchun o'zgartirish to'g'risidagi ta'limot asoslarini tushunib olishlariga yordam beradi. Bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatlari ularni mehnatga o'rgatadi va vatanparvarlik tarbiyasiga ko'maklashadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning barcha turlari bir-biriga bog'liq bo'lishi, biri ikkinchisini to'ldirishi kerak. O'simlik va hayvonlar bilan ishlashga darslarda vujudga kelgan qiziqish sinfdan tashqari mashg'ulotlarda rivojlanishi mumkin, ayniqsa tabiatshunoslik bilan qiziqqan o'quvchilar esa yosh tabiatshunoslar to'garagiga birlashtirilishi mumkin. O'quvchilarda tabiiy ob'ektlarni kolleksiya qilishga moyillikni, hayvonlarga muhabbatni payqagan o'qituvchi ularning qiziqishlariga qarab mashg'ulotlar topishi, tabiat to'g'risidagi fanni chuqurroq o'rganish istagini rivojlantirish zarur.

Sinfdan tashqari ishlarining mazmuni. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarga tabiatni o'rganish va muhofaza qilish, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil mashg'ulotlar kiradi. Bumashg'ulotlar darslarni takrorlamasligi va faqat darslarda olingan bilimlarga asoslanishi kerak. Bolalar e'tiborini tabiat, shuningdek maktab jonli burchagi va o'quv-tajriba maydonchasidagi kuzatishlarga qaratmoq; ko'cha va maktabni ko'kalamzorlashtirish bo'yicha, qushlarni muhofaza qilish va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash bo'yicha ijtimoiy-foydali mehnatni

tashkil qilmoq lozim. Tabiatdagi amaliy ishlar kuzatishlar va tegishli kitoblar o'qish bilan birga olib borilishi kerak.

Sinfdan tashqari ishning jadal borishi uchun uni tashkil etish shakllarini puxta o'ylab chiqish zarur. Sinfdan tashqari ishlarni uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga ko'plab o'quvchilarni qamrab oluvchi ommaviy ishlar, tadbirlar, ikkinchi guruhga - guruh doirasida olib boriladigan to'garak ishlari va uchinchi guruhga tabiatni o'rganishga qiziqqan yakka tartibdagi o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar kiradi.

Ommaviy mashg'ulotlar kinofilmlarni namoyish qilishni, tabiatga ekskursiya va poxodlar o'tkazishni, ertaliklar, o'quvchilar ishlarining ko'rgazmasini tashkil qilishni, shuningdek kompaniyalar (hosil kuni, bog' haftaligini, daraxtlar o'tkazish haftaligi, qushlar kuni va boshqalar) o'tkazishni nazarda tutadi.

Guruh mashg'ulotlarga yosh geografiyachilar, yosh tabiatshunoslar, klub ishlari kiradi. Yakka tartibdagi mashg'ulotlarga devoriy gazetalar, albomlar chiqarishni; jonli tabiat burchagi va maktab oldi o'quv-tajriba uchastkasidagi, tabiatdagi ishlarni; darsdan tashqari o'qish va axborot burchagi uchun tabiatshunoslik mazmunidagi materiallar tanlashning tabiat to'g'risidagi "Yosh tabiatshunos" jurnallariga, bolalar ilmiy-ommabop kitoblariga e'tibor berishni o'z ichiga oladi.

Sinfdan tashqari ishlarning barcha turlari bir-birlarini to'ldirishi va takomillashtirishi lozim. Individual topshiriq yoki o'qituvchining tavsiyasini bajarishda muayyan qiziqish uyg'onishi mumkin. Bir necha o'quvchilardagi o'xshash qiziqishlarni aniqlab, o'qituvchi ularni to'garak yoki klubga birlashtiradi. Bunday birlashmalar ommaviy sinfdan tashqari tadbirlarning tashkiliy markazi bo'lib qolishi mumkin, ularni muvaffaqiyatli o'tishi uchun turli tayyorgarlik ishlari va ko'p sonli ishtirokchilar kerak.

Sinfdan tashqari ishlar tashkiliy shakli, mazmuni, o'tkazish metodlari jihatidan xilma-xil bo'lishi kerak. Uning mazmuni qandaydir doimiy bo'lmaydi. U o'quvchilar tarkibi, yoshi, qiziqishi va ehtiyojiga, maktabning tabiiy o'rami, yil fasli, xona va jihozlarga bog'liq. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari foydalanishi mumkin bo'lgan ishlarning taxminiy ro'yxati quyidagicha:

- tabiatda kuzatishlar, tabiiy hodisalarning sabablarini aniqlash;
- o'lkashunoslik muzeyiga (tabiat muzeyiga), qazilma boyliklar olinadigan

joylarga, dala va fermalarga to'plangan materiallarni rasmiylashtirish bilan ekskursiyalar;

- tabiiy material to'plash va rasmiylashtirish, kolleksiya, gerbariy, maket,

model tuzish;

- maktabning atrof tabiat xaritasi va unga yondoshgan joyning planini tuzish;

- ilmiy-ommabop tabiatshunoslik adabiyotni, "G'uncha", "Yosh tabiatshunos" jurnallari hamda "Turkiston" gazetasidagi maqolalarni jamoa bo'lib o'qish;

- jonli tabiat burchagi tashkil qilish, o'simlik va hayvonlarni kuzatish va ular ustida tajribalar o'tkazish, shuningdek maktab oldi maydonchasida tajriba

va kuzatishlar olib borish;

- tabiatshunoslik mazmunidagi kinofilm, diafilm, diapozitivlarni ko'rish;
- xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmalari bilan tanishish;
- ommaviy tadbirlarda (bayram, ertalik va h. k.) qatnashish;
- zoopark hayvonlari bilan tanishish;
- tabiatni muhofaza qilish, odam hayotida o'simlik va hayvonlarning foydasi va ahamiyati to'g'risida suhbatlar;
- tabiatshunoslik mazmunidagi bolalar ilmiy-ommabop adabiyotiga obzor;
- tabiat muhofazasiga qaratilgan ijtimoiy-foydali ishlar, ko'kalamzorlarni

muhofaza qilish, daraxt va butalar o'tkazish hamda ularni parvarish qilish, begona va madaniy o'simliklarning urug' va mevalarini yig'ish, begona o'tlar, dala, poliz, bog', o'rmon zararkunandalarga qarshi kurash, foydali hayvonlarni muhofaza qilish;

- tabiatshunoslik xonasini o'lkashunoslik burchagini, ko'rgazmalarni, tabiat

burchagini jihozlash;

- tabiiy materialdan oddiy ko'rgazmali qurollar tayyorlash, o'quvchilar ishlarining ko'rgazmasini tashkil qilish;
- devoriy gazeta va albomlar uchun material yig'ish;
- devoriy gazeta, "Buni bilish qiziqarli", "Tabiat haqida o'qi", "Tabiatni kuzatishlarimiz" va shu kabi axborot varaqalarini chiqarish;
- yangiliklar burchagi hamda sinfdan tashqari o'qish mavzulari bo'yicha qo'shimcha o'qish uchun adabiyot yig'ish.

Sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishlarining metod va uslublarini o'qituvchi oldindan rejalashtiradi, o'quvchilar faoliyatining xilma-xil turlariga jalb qiladi. Sinfdan tashqari ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan har bir mashg'ulot uchun materialni to'g'ri tanlanishiga, uni o'tkazishning tuzilish rejasi va metodikasiga, shuningdek mo'ljallangan tadbirlarda o'quvchilarning faol qatnashishlariga bog'liqdir.


Yakka tartibdagi ishlar. Tabiatni bilish va moyillik yoki hech bo'lmaganda qiziqishga ega bo'lgan o'quvchilar bilan tabiatshunoslik bo'yicha individual ishlar olib boriladi. Bolalarda tabiatga qiziqish vujudga kelishida o'qituvchining shaxsi, uning tabiatga muhabbati va unga ehtiyotlik munosabati, o'quvchilarni ergashtira va qiziqтира olish uquvi katta rol o'ynaydi. Uning 1-sinfda kuzatishlarni qanday tashkil qilishiga, bu ishning zarurligi va muhimligini qanchalik asoslashiga, tabiatshunoslikni o'qitishni qanday yo'lga qo'yishiga o'quvchilarning bilim sifatigina emas, balki darsdan tashqari vaqtlarda tabiatshunoslik ishlari bilan ishlashga istaklari ham bog'liqdir.

Individual topshiriqlarni bajarish tadqiqiy ish ko'nikmalarini shakllantiradi, bolalarning bo'sh vaqtlarini foydali va qiziqarli ishlar bilan to'ldiradi. Individual topshiriqlarning mazmuni o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.

O'quvchini nimaiki qiziqtirmasin xona o'simliklarini parvarish qilishmi, hayvon va o'simliklarni tasvirlagan marka yoki otkritkalarini to'plashmi, gerbariy tuzishmi, tabiatda tajribalar qo'yish va kuzatishlar o'tkazishni - u o'qituvchi tomonidan ma'qullanishi va quvvatlanishi lozim. Individual

topshiriqlarning mavzulari o'quvchilarning qiziqishlariga qarab tanlanadi, ammo topshiriqlarning mazmuni ularning bajarilishini tashkil qilishy va metodikasi o'qituvchi tomonidan sinchiklab o'ylangan bo'lishi kerak (o'rganish ob'ekti, kuzatish yoki ish joyi belgilanadi, plan tuziladi). Ishning oxirga yetkazilishi va unga qiziqishni yo'qolmasligi uchun individual topshiriqlarni bajarilishida o'qituvchi o'quvchilarga muntazam yordam ko'rsatib borishi zarur.

Gerbariy yoki kolleksiyalar tuzish kabi shunday topshiriqlarning bajarilishi faqat o'qituvchi o'quvchilarni oldindan o'simlik, hasharot va boshqa tabiat ob'ektlarini yig'ish, o'simliklarni kuzatish, to'plangan materiallarni montaj qilish va shu kabilarning qoidalariga o'rgatgandagina muvaffaqiyatli bo'ladi. Shu maqsadda tabiatga o'quv ekskursiyasi va mehnat ta'limi darslaridan foydalaniladi. Tabiiy material to'plash qoidalari haqida hikoya qila borib, o'quvchilarga tabiatni muhofaza qilish zarurligini eslatish kerak.



Individual topshiriqlarning bajarilishini tekshirib borish kerak, ish oxirida esa uning natijalarini o'quvchilarga bayon qilish zarur. Doim esda tutish kerakki, individual ishlarning amaliy ahamiyati faqat o'quvchilar uni amalga oshirish zarurligini tushunganlaridagina ta'minlanadi. Shunga ko'ra qilingan ish to'g'risida vaqt-vaqti bilan (tabiatshunoslik darslarida yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda) hisobot tinglab borish foydalidir. Bunda har bir individual ishning natijalari barcha o'quvchilarning boyligi bo'lib qoladi. Bunday hisobotlar sinfdan tashqari ishlarga qiziqishni rag'batlantiradi, tabiat

to'g'risidagi o'quvchilar bilimini to'ldiradi va kengaytiradi, ularni sinfdan tashqari ishlarning barcha shakllarida faol qatnashishlariga olib keladi.

Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarga e'tiborni kuchaytirish bilan ham ta'lim-tarbiya jarayonining uzviyligiga erishiladi. Darsdan va sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish vazifasi faqat bolalarni band qilish emas, balki ancha murakkab, ya'ni ularning darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizga nisbatan qiziqishini uyg'otish, qolaversa, ularning hayotini zavq va shavqqa to'ldirishdan iboratdir. Xuddi dars jarayonida bo'lgani kabi tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda ham sinf o'qituvchisining vazifasi mas'uliyatli va ahamiyatlidir. Bu mas'uliyat ulardan doimiy ravishda o'z ustida ishlash, ijodiy mehnatni talab qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati - o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. O'quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa, bular orqali bilimi va ma'naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda o'quvchilarning milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini o'stirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi. Ularning har biri o'ziga xos belgilar, bir-biridan farq qiluvchi shakllar, vositalar, ijodiy mehnatni talab qiladi. Sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlar o'qituvchilarning yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy o'quvchilik davr, ya'ni ularning maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan kunlaridan boshlanadi. Mustaqillik bayrami, 1 - sentabr, Kuz bayrami, Konstitutsiya kuni, Alifbo bayramlari, Yangi yil, Harbiylar kuni, mashhur allomalarning tug'ilgan kunlari,

8 mart, Navro'z bayrami, gullar, mehrjon, hosil bayramlari kabilar. Mana shunday tbevosita o'quvchilarda vatanga e'tiqod tushunchasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu r uchun xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot namunalari muhim manba hisoblanadi.

O'quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilishi kerak:

- o'quvchining yoshi, ruhiy holatiga mos bo'lishi;
- darsda olgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi;
- aniq maqsad vareja asosida uyushtirilishi;
- tadbirorqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida jamoatchilik,

uyushqoq-lik, o'zaro yordam kabi axloqiy sifatlar tarkib topishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari tquyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tadbirni rejalashtirish.
2. Tadbir yuzasidan o'quvchilarga tushuncha berish.
3. Tadbirni tashkil qilish jarayonida sinf o'quvchilarining barchasi ishtirok etishini ta'minlash.
4. O'quvchilarning imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda ishlarni taqsimlash.
5. Tadbirni amalga oshirish.
6. Tadbir natijalarini tahlil qilish va baholash.

Bosqichlarning har biri o'qituvchi tomonidan oldindan chuqur o'rganilgan bo'lishi lozim. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun yordam beradigan quyidagi metodik tavsiyalarni bayon etishni lozim topdik:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari tadbirlariga rahbarlik qilishda, avvalo milliy qadriyatlar, ularning ahamiyatligi, ijtimoiy xarakteriga e'tibor berish kerak (masalan, ertak va maqollar vositasida; tarixiy mavzular yoki milliy bayramlar: “Navro'z”, “Mustaqillik kuni”, “Bilimlar kuni” va shu kabilar).

2. Yaxshi ishtirok etgan o'quvchilarni sinf va maktab jamoasi oldida rag'batlantirish.

3. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchi shaxsidagi axloqiy sifatlarni rivojlantirish yo'llarini izlash.

4. Sinfidan tashqari mashg'ulotlarga rahbarlik qilishda milliy qadriyatlar ta'sirida ba'zi o'quvchilarda mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf qilib borish. Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir boshlang'ich sinf o'quvchilarda

ekologik madaniyatni shakllantirishda, eng avvalo, tashkil qilinadigan tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini chuqur o'rganishi, uning natijalariga jiddiy e'tibor berishi va bu bilan o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etishga intilmog'i, vatanga e'tiqod, milliy g'urur, vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo'llarini izlamog'i lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanga e'tiqodni shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirish, o'quvchilarni milliy qadriyatlar bilan chuqurroq tanishtirish, ularning darsda olgan bilimlarini amalda mustahkamlash maqsadida turli ertaliklar, kechalar, bellashuvlar o'tkazishni maqsadga muvofiq deb bildik. Buning uchun, avvalo, o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, bayramu sayillar va urf-odatlar haqida bolalarda tushuncha hosil qilish, vatan haqidagi she'rlarni yod oldirish, o'quvchilarning o'zlari chizgan vatan manzarasi tasvirlangan suratlar namoyishini tashkil qilish, milliy urf-odatlar aks etgan ko'rinishlarni tayyorlash bilan ertaliklarga tayyorgarlik ko'riladi. Milliy bayramlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan birgalikda nishonlash, avvalo o'quvchilarda ona-Vatan, tabiat va jonzotlarga nisbatan mehr-muhabbat, g'urur va iftixor hissini shakllantiradi. Bu kabi tarbiyaviy ishlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligi oshadi, dunyoqarashi kengayadi, asosiysi darsda olgan bilimlari mustahkamlanadi, ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Xuddishunday ijobiy sifatlarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarkibtoptirishda ertaliklarning o'z o'rni bor. Ertaliklar bolalar uchun juda qiziqarli, ta'lim-tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan vositalaridan biridir. Ertaliklarda deyarli barcha sinf o'quvchilari ishtirok etadi. Ertaliklarga tayyorgarlik jarayonining o'ziyoq bolalarda qiziqishni uyg'otadi. Bolalar ertalik munosabati bilan milliy qadriyatlarimiz namunalarini bo'lmish topishmoq, maqol,

tez aytishlarni yod oladilar. Biz kuzatishlar olib borgan maktablarning aksariyat qismida ertaliklarni o'tkazishga kam e'tibor berilishi aniqlandi. Bu sohadagi talab va istaklarni o'rganib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan bir-necha bor ertaliklar uyushtirdik. Bizningcha, ertaliklar quyidagi tartibda o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

-ertalikning mavzusini tanlash va mavzu yuzasidan materiallar

to'plash; - ertalikning dasturini tuzish;

-ertalikka mehmonlar taklif etishni rejalashtirish; -

ertalik o'tkaziladigan joyni aniqlash va bezash;

-ertalikni muvaffaqiyatli o'tkazish va qatnashchilarni rag'batlantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan “Navro'z bayrami”, “Mehrjon bayrami”, “Gullar bayrami”, “Alifbo bayrami”, “Oltin kuz” va boshqa ertaliklarni uyushtirish mumkin.

Bahor - fasllar gulshani, uyg'onish fasli. Butun borliq, ona tabiat barq urib yashnaydi, yangilanadi. Tirik jonzot borki yangi kunning tug'ilishidan bahra oladi, zavqlanadi. Bizning tabarruk xalqimiz ham Navro'z bayramini, ya'ni yangi kunning tug'ilishini aynan bahor faslida nishonlashi bejiz emas.

Navro'z - xalqimizning eng ommaviy va go'zal bayramidir. O'zbek millatining umumxalq bayramlari orasida ushbu bayram o'ziga xos ekologik mazmun va ma'no bilan boyitilgan. Navro'z - o'zbek xalqining tabiat, yer va uning in'omlariga bo'lgan muhabbatining o'ziga xos mujassamligidir. Shunga ko'ra, o'zida nihoyatda katta tarbiyaviy imkoniyatni mujassamlashtiradi hamda insonlarda mehnatsevarlik, insonparvarlik, o'zaro hurmat, muhabbat, ezgulik, adolat, do'stlik kabi ijobiy fazilatlarni mustahkamlashga imkon yaratadi.

Navro'z O'zbekistonda bahor va mehnat bayrami hisoblanib, bahor faslining boshlanishida o'tadi. Chunki, bu paytda dehqonlar yerga dastlabki urug'ni qadashadi, mevali va manzarali daraxt ko'chatlarini o'tqazishadi. Qisqasi yerni bezashga harakat qilishadi, toki bu ijobiy ishlar insonlarga ezgulik keltirishiga, ularning qalbida ishonch va umid tuyg'ularining shakllanishiga olib keladi. Qadimgi an'analarga ko'ra, Navro'z ayyomi arafasida kishilar ma'lum bir shartlarni bajarishlari lozim bo'lgan. Ya'ni ko'cha va hovlilarni tartibga

keltirish, hasharlarda ishtirok etish, ariq va zovurlarni tartibga keltirish, daraxtlarni qurigan shox-shabbalardan tozalash va oqlash, ko'chat hamda gullar o'tqazish, hushchaqchaq va shodumon yurish, bir-birlariga yaxshi niyatlar tilash, urushgan kishilar bilan yarashish kabi shartlarni bajarishlari lozim bo'lgan. Ajdodlarimiz asrlar davomida to'plagan xalq an'analari, urf-odatlari va marosimlarida yer, suv, havo, o'simlik va hayvonot dunyosiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga rioya qilganlar. Bularning barchasi ekologik tarbiyaning ko'rinishlari bo'lib, ekologik an'analar hisoblanadi. Yoki insonlarni tabiatni muhofaza qilishga, uning tabiiy zaxiralaridan oqilona foydalanishga harakat qilishlari, bor kuchlari bilan amaliy faoliyat olib borishlari deb tushunsak bo'ladi. Ushbu ibratli ishlarga yoshlarni ham jalb etish, ularda ekologik ong vadunyoqarashning shakllanishiga, insoniylik, vatanparvarlik, mehr-oqibatli bo'lish kabi his-tuyg'ularning tarkib topishiga olib keladi. Ayniqsa, biz suvlarni toza saqlash, undan tejamkorlik bilan foydalanish, havoning musaffoligiga erishish, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosini muhofaza qilish kabi tadbirlarni hayotiy ehtiyojimizga aylantirishimiz lozim. Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi har bir insonga tabiatsiz, tabiiy boyliklarsiz yashab bo'lmashligini singdirishdan iboratdir. Inson tabiiy zaxiralarning tunganmas, cheksiz emasligi va qachonlardir tugashini bilishi kerak. Shu bois, ulardan tejamkorlik bilan foydalanish zarur. Bu esa yoshlarda axloqiy me'yorlarga rioya etish ko'nikmasinirivojlantiradi. Bugungi kunga kelib, mustaqil ona yurtimizda buyuk xalqimizning asrlar davomida ko'z qorachig'idek asrab-avaylab kelgan ulug' bayrami o'z mavqeiga ega bo'ldi. Turli to'siqlar va qarama-qarshiliklarga qarshi katta kuch bilan millatimiz tomonidan asrab kelingan bayramning ozodlik yuzini ko'rib, o'z o'rni va mavqeyi topishi hamda xalqimiz tomonidan umumxalq bayrami sifatida har yili nishonlanishi millatimiz uchun katta quvonchdir. Tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovati ramzi bo'lgan go'zal "Navro'z" bayrami tarovatini o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga yetkazish, ular ongi-qalbida qadimiy va mo'tabar an'alarimizga nisbatan mehru-muhabbat, tabiatga yaqinlik va uni e'zozlash hislatlarini ular shuuriga singdirish muhimdir. Bular o'z navbatida barchamizda,

hozirgi kunda aholi o'rtasida iymon-e'tiqod, axloq-odob, savob va gunohning mohiyatini tushuntirib berish, tug'ilib o'sgan o'z ona zaminini e'zozlash, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi tuyg'ularni, tejamkorlik, sarishtalik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini qaror toptiradi. Ayni kunda dunyo bo'yicha umumbashariy ahamiyat kasb etayotgan, qolaversa, respublikamizni ham chetlab o'tmagan va katta xavf tug'dirayotgan ekologik muammolar davrida Navro'z bayramining mazmun-mohiyati bilan yosh avlodlarnitanishtirishaynimuddadir.

Zero, inson o'zining mehr-muhabbati bilan tabiatni muhofaza qilishi, unga yordam bera olishi mumkinligini anglab yetishi lozim. Shundagina ekologik falokatning oldi olinadi, insoniyat bu xavf-xatardan omon qoladi. Ekologik muammolarni hal etish uchun uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarning ekologik madaniyati va dunyoqarashini shakllantirish zarur. Yurtimiz go'zalligi, ozodaligi, tozaligi va obodonligiga o'z hissamizni qo'shish - bizning maqsadimizdir. Shundan kelib chiqib barchamizda ekologik madaniyat va dunyoqarashni tarkib toptirish o'ta muhim vazifadir. Aslini olganda, bu vazifalar har birimizning yuksak insoniylik va ma'naviy burchimiz ekanligini anglab yetmog'imiz, tabiat, uning resurslarini asrab-avaylashga hamda ulardan oqilona foydalanishni hayotiy ko'nikmamizga aylantirishimiz lozim. Navruz o'ziga xos betakror bir olam bo'lib, inson zotini tabiat bilan doimo uyg'un va hamohang bulib yashashga da'vat etadigan o'zaro mehr-oqibat, qadr-qimmat, xayr-u saxovat ramzi va belgisidir. Ayni Navruz faslida barchamiz o'zimizning tabiat farzandi ekanimizni, xalqimizga xosmilliy qadriyat va an'analar nechog'li teran va sermazmun, madaniyatimiz naqadarboy ekanini butun qalbimiz bilan anlaymiz va beixtiyor yuragimiz g'urur va iftixorga to'ladi.

Axir bolalar o'sib kelayotgan yosh avlod hisoblanadi va mamlakatimiz taqdiri ularga bog'liq. Tabiatga mehr, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kerakligini singdirish har birimizning burchimiz.

Maktabda parrandachilikni tashkil qilish

Maktabda parrandachilikni tashkil qilish va unda turli ishlarni o'quvchilar bajarishini yo'lga qo'yishda o'qituvchi asosiy rol o'ynaydi. O'qituvchi

maktabda sermaxsul tovuq zotlarini yoki boshqa uy parrandalarini boqish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak.

1. Maktabda parrandaxona tashkil qilish va unda uy parrandalarini boqish uchun mavjud sharoitlarini aniqlab olish, ishlarni taxminiy rejalashtirib olish. Bu masalada kollektiv orasida fikr yuritish.

2. o`qituvchi maktab direksiyasi bilan parrandaxona kuri va parrandalarni boqish ishini tashkil qilish yuzasidan fikrlashib olishi lozim. Maktab direksiyasi roziligi bilan tashkil qilingan parrandachilikni rivojlantirishda direksiyaning yordami kattadir.

3. maktab yaqinida parrandachilik fermasi bo`lgan jamoa xo`jalik rahbarlari bilan suxbatlashib, ularning fikrlariga qarab ish boshlash yaxshi natija beradi.

4. parrandalar uchun, jumladan tovuqlar uchun beriladigan oziqlarni qayerdan olishni aniqlab olish, lozim bo`lsa kolxoz va sovxoz rahbarlari bilan kelishib olish.

5. tovuqxona qurishishiga o`qituvchi mehnat (duradgorlik) o`qituvchisi bilan hamkorlikda o`quvchilarni jalb qilish.

6. Tovuxona ko`rish uchun kerakli qurilish materiallari to`plash.

7. boqiladigan tovuq zotlarini aniqlab, parrandachilik inkubatoriya rahbarlari bilan uchrashib, kerakli parrandalarni olish yuzasidan kelishib olish.

Ko`pincha maktabda tovuq boqish maqsadga muvofiq ekanligini xisobga olib, tovuqxona haqida fikr yuritimiz. O`qituvchi tovuqxonani qanday joyga ko`rish, qanday ko`rish, nimalar bilan jixozlash, uning katta kichikligi haqida, jo`jalar, tovuqlarni kuzatish yuzasidan bir necha mavzuli Z. M. SHinkevich va T. Isxokovlarning «Maktab o`quv tajriba uchastkasida Amaliy mashgulotlar» nomli qo`llanmasidan foydalanishni tavsiya etadi.

Tovuq oziqi, boqish normasi

Tovuqxonada normal hayot kechirish va uning mahsuldorligini oshirish uchun boqish va parvarish qilishga alohida e`tibor berish talab qilinadi. Tovuxlarga beriladigan oziqa moddalar har tomonlama talabga javob berishi

kerak. jumladan bug`doy, Arpa, jo`xori kabi donlar tarkibida oqsil bo`lgan oziqlar, vitaminli va mineral moddalar bo`lgan oziqlar yetarli bo`lishi kerak.

Tuxumi uchun boqiladigan zotli tovuq jo`jalari uchun

taxminiy oziq rasioni

(har bir jo`jaga sutkasiga beriladigan oziq gr. xisobida)

№	oziqlar	1-oyda	2-oyda	3-oyda	eslatma
1	Quruq aralash oziqlar	9	3,5	27	
2	Yanchilgan yoki butun don	--	9	18	Har kuni ikki marta
3	tertga qushiladigan oziqlar				Suvi almashtirib yangi suv quyib turiladi
4	Aralash oziqlar	10	23	45	
5	so`zma	3-5	--	--	
6	Yozgi olingan sut	5	9	18	
7	Ildiz mevalar	--	9	18	
8	Ko`kat	2-10	14-18	23-27	
9	Baliq moyi	0,5-0,3	0,3	0,4	

Maktabda tashkil qilingan tovuqxonada tovuqlarni boqish va parvarish qilish yuzasidan olib borgan ishlarni sinfga olgan nazariy bilimlar bilan bog`lab borish, tovuqlarni boqish va parvarish qilishga oid qo`shimcha adabiyot va tavsiyalarni o`qib o`rganish natijasida o`quvchilarning nazariy bilimlari kengayadi va chuqurlashadi.

№	oziqlar	1-oyda	2-oyda	3-oyda	eslatma
1	Quruq aralash oziqlar	10	15	31	
2	Yanchilgan yoki butun don	--	10	20	
3	tertga qushiladigan				

	oziqlar				Har kuni ikki mahal suvni almashtirib Yangi suv kuyib turiladi
4	Aralash oziqlar	11	25	50	
5	Suzma	3-5	--	--	
6	Yangi olingan sut	5	10	20	
7	Ko`katlar	2-10	15-20	25-30	
8	Ildiz mevalar	--	10	20	
9	Baliq moyi	0,1-0,3	0,4	0,5	

Eslatma: 1) quruq aralash oziqlar punkti quyidagilarni o`z ichiga oladi: erma don bug`doy kepagi, go`sht, suyak va baliq moyi, pichan uni maydalangan bur, tuz

2) ildiz mevalarga qaynatilgan kartoshka, lavlagi sabzi kiradi

3) yorma yoki butun donlarga bug`doy, arpa, tariq kiradi.

Shuningdek amaliy ishlarni qanday bajarishga oid o`quv va malakalar xosil bo`ladi.

Maktabda tovuqxona tashkil qilish va uni boqishdan maqsad o`quvchilarning mehnatga bo`lgan munosabatlarini rivojlantirib borishdir.

O`qituvchi o`quvchilarni tovuqxonada tovuq boqish ishida jalb qilishni shunday rejalashtirishi kerakki bir o`quvchi hama vaqt bir xil ishni bajarmay yil davomida hamma ish yuzasidan o`quv va malakalarini egallashlari maqsad qilib olinishi ko`zlanadi.

Kursni O`qitishda sinfdan olgan nazariy bilimni amaliy ishlar, kuzatishlar, tajriba qo`yish bilan bog`lab borishni tabiatshunoslik kabinetida maktab o`quv tajriba uchastkasida maktabda tashkil qilingan jonli burchakda jamoa xo`jalik bog`larida amalga oshirish mumkin. O`quvchilarga nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ishlarni bajarish o`quv hamda malakalarini hosil qiluvchi omillardan biri ularni jamoa xo`jalik parrandachilik fermasida va inkubatoriyaga ishga jalb qilishdir.

O`quvchilar parrandachilik fermasida va parrandachilik inkubatoriyasida tashkil qilinadigan umumiy foydali mehnatni bajarishlariga qarab mehnatni uch guruhga bo`lish mumkin. Birinchi guruhdagi ishlarga, parrandachilik fermasida

va inkubatoriyada ekskursiya davomida qisqa muddatda bajariladigan amaliy ishlar kiradi. Bu amaliy ishda o`quvchilar jo`jalarga yoki tovuqlarga don sepush oziqalarni tayyorlash va boshqa ishlarni qisqa muddatda bajarib ma`lum darajada foyda keltiradilar.

Ikkinchi guruhdagi ishlar parrandachilik fermasida va inkubatoriyada ikki uch kunda bir marta bir yarim soat atrofidagi bajariladigan amaliy ishlardir. Foydali ishlarga qatnashuvchi o`quvchilarning o`zlarida qiziqish bo`lishi va ota onasi bu ishga ruxsat berishi kerak. O`quvchilar qiziqishini oshirishda tabiatshunoslik o`qituvchisi katta rol o`ynaydi.

Uchinchi guruxdagi ishlarga parrandachilik fermasidan har kuni bir yarim ikki soat davomida bajariladigan amaliy ishlar kiradi. Bu bajarilgan ishlardan o`quvchilarni rag`batlantirishdan qatiy nazar tabiatshunoslik o`qituvchisi. Maktab direksiyasi va ota onalar xabardor bo`lishi kerak.

O`quvchilarning bu ishda ishtirok etishlari uzoq vaqt davom etadi. Shuni hisobga olib ish rejalashtiradi. Parrandachilik fermasidagi umumiy foydali mehnatda o`quvchilarning ishtirok etishlarini darsdan keyin bir vaqtda tashkil qilish uchun ular ikki guruxga bo`linadi. Guruxga ajratishda o`quvchilarning qiziqishlari xisobga olinadi. O`qituvchi o`quvchilar bilan suhbat o`tkazib ularning umumiy foydali mehnatda qatnashtirishlari va uning ahamiyati ishlarni e`tibor bilan bajarish, bajarilgan ishlarni har doim kundalik daftarga yozib borish va xulosa chiqarish haqida suxbat o`tkazadi. Suhbatdan so`ng o`quvchilarga parrandachilik fermasi uchun alohida yo`llanma yozdiriladi.

O`qituvchi ma`lum vaqtni belgilab o`quvchilarni parrandachilik fermasiga olib boradi. O`qituvchi o`quvchilarni ferma rahbari va xodimlari bilan tanishtirib bajariladigan ishlarni bajarish qoidasiga rioya qilish xavfsizlikning oldini olishga oid suxbatlar o`tkazib ishni taqsimlaydi. Bu ishlar har tomonlama samarali bo`lishi uchun o`quvchilarni 4-5 tadan 5 ta zvenoga ajratib ularni ferma xodimlariga birlashtirib qo`yish maqsadga muvofikdir. Bu ferma xodimi a`zolariga yo`l yo`riq ko`rsatishda ayrim ishlarni qanday bajarilayotganini kuzatib borishda katta rol o`ynaydi. O`qituvchi maktabda o`quvchilarning qanday ishlayotganligini surash bilan chegaralanib qolmay fermaga ham vaqti

vaqti bilan borib ishni qanday borayotganligini aniqlab turishi o`quvchilarni ruxan ko`taradigan so`zlar bilan suxbat o`tkazib turishi ko`zda tutiladi. Bunday xabar olish va suhbatning tarbiyaviy ahamiyati kattadir.

O`qituvchi parrandachilik inkubator stansiyasida umumiy foydali mehnatda ishtirok etuvchi o`quvchilar guruxiga tegishli yo`llanmalar yozdirishdan oldin savol javob tariqasida suxbat o`tkazadi. Bu savollar o`tilgan mavzulardan va turmushdan olingan bo`lib, o`quvchilarning faolligini oshirishga qaratmog`i lozim.

Tabiatshunoslik darsini ekskursiya bilan o`zaro bog`lab borish

Ekskursiya so`zi lotincha bo`lib, o`quv yoki madaniy ma`rifiy maqsadda diqqatga sazovor joy, muzey va shu kabilarga jamoa bo`lib borish ma`nosini anglatadi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari bilan «tabiatshunoslik asoslari» fanidan tashkil qilinadigan ekskursiyalar ta`lim tarbiya jihatdan katta ahamiyatga ega. Ayniqsa ekskursiyaning ahamiyati shundaki, o`quvchi tabiatshunoslik darslarida olgan ma`lumotlarini hayot bilan bog`laydi. O`quvchining vatanini sevishi, uni ardoqlashi va u bilan faxrlanishi uchun ekskursiya muhim imkoniyatga ega. O`quvchilar ekskursiya vaqtida o`z o`lkasi, uning tabiati, va halqining mehnat faoliyati bilan yaqindan tanishadi. Ekskursiya vositasi bilan o`qituvchi o`quvchilarga vatanni sevish, uni ko`z qorachig`iday asrash kabi tuyg`ularni shakllantiradi. Vatanga cheksiz muxabbat ruhida tarbiyalaydi. Ekskursiya ham dars shakllaridan biridir sinfdagi dars asosiy ta`lim shakllaridan bo`lsa, ba`zi bir ta`limiy mavzular ekskursiya yo`li orqali o`zlashtiriladi. Bunday soatlar ham ta`lim turlaridan biri bo`lib, unda butun sinf jamoasi ishtirok etadi. Ekskursiyada barcha predmetlar tabiat, atrof muxit mushoxada qilinadi. Uning yana bir ahamiyati shundaki narsa va hodisalarni birgalikda o`rganish imkoniyatini beradi. Barcha ekskursiya darslari uch guruxga bo`linadi:

- 1) tabiatga sayohat – tabiat predmetlari va hodisalarini kuzatish
- 2) ishlab chiqarish korxonalariga sayr – mahsulotni qayta ishlash jarayoni bilan tanishish

3) muzeylarga ekskursiya – o`simlik va hayvon olamining xilma-xilligi bilan tanishish, yer osti boyliklari, o`z o`lkasining mehnatkash xalqi tomonidan etishtirilayotgan mahsulotlar bilan tanishish ekskursiya yaxshi o`tqazilsa, maqsadga muvofiq bo`lsa o`quvchilarni idrok qilish qobiliyati ancha rivojlanadi. Bunday mashg`ulotlarni o`tkazishga o`qituvchi tayyor bo`lishi kerak va barcha choralarni ko`rishi zarur, chunki o`quvchilar predmet va hodisalarni yuzaki qabul qilmasdan ularning muhim tomonlarini o`zlashtirishi lozim.

Ma`lumki o`qituvchi dars o`tishga oldindan tayyorgarlik ko`radi, xudi shunday ekskursiya o`tkazish uchun ham u oldindan tayyor bo`lishi lozim. Bunday dars rejasini tuzayotganda u mavzularini va o`tkazish muddatini aniqlashi lozim. O`qituvchi yillik ish dasturiga qarab, ekskursiya rejasini tuzadi. Buning uchun o`qituvchi eng avval ish sifatini aniqlashi kerak.

Ekskursiya rejasida uning mavzusi oldindan belgilangan bo`lib, harakat yo`nalishlari, ya`ni qaysi obektdan boshlanishi va qaysi obektda tugashi ko`rsatilishi kerak. O`qituvchi rejasida maktabdan kuzatish obektigacha bo`lgan masofa yo`l vaqti, sayr va qaytish muddatlari ko`rsatilgan bo`lishi zarur. O`qituvchi uchun zarur masalalardan yana biri ekskursiyani tashkil qilish va uning borishini chuqur o`zlashtirishga bolalarni o`zlashtirish va o`zlari bilan nimalarni olish zarurligini uqtirishi lozim. Ekskursiya rejasini tuzayotganda birinchi navbatda mahalliy sharoit hisobga olinishi kerak. Bog`, buxoro davlat universitetining zoologiya mo`zeyi, labi xovo`z, bolo xovo`z, o`simliklarni himoya qilish, suvni tozalash inshootlari, ko`chatchilik, paxtachilik ilmiy tekshirish xo`jaliklari, parrandachilik, baliqchilik xo`jaliklari tabiatshunoslik darslari uchun ekskursiya bo`la oladi. Ammo o`qituvchi bundan ham qulay joylarni tanlashi mumkin.

O`qituvchi oldindan o`quvchilarga ekskursiya paytida nimalar to`g`risida tushuncha hosil qilishlarini bayon qiladi. O`quvchilarga uning maqsadi va vazifalari to`g`risida beriladigan tushunchalarni rejaga kiritiladi. Ekskursiya o`tadigan joy to`g`risida ma`lumot beradi. Agarda ekskursiya paytida bajariladigan ishlar taqsimlanishi zarur bo`lsa, u vaqtda barcha ishlarni oldindan

rejalashtirish lozim. Ekskursiya paytida kerakli anjomlar – daftar, ruchka va boshqa asboblari olish, agarda ekskursiya 5-6 soat davom etsa o'quvchilar o'zlari uchun oziq ovqat yoki pul olishlari kerak. ekskursiyada albatta maktab hamshirasi, ilmiy bo'lim mudiri, zarur bo'lsa YPX xodimlari hamkorlik qilishi lozim.

Ekskursiya obektiga borgandan keyin barcha qoidalarga rioya qilish zarur. Eng avval tartib-intizom, jamoatchilik, gigiena qoidalari rioya qilish zarurligini uqtirish va amal qilish lozim. Agar o'lkashunoslik muzeyiga ekskursiya uyushtirilgan bo'lsa aniq bir qismidan boshlab, barcha eksponatlarni tartib bilan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Yaxshisi mutaxassis xodimning tushuntirib berishi ma'qul. O'quvchilar fikri buzilmasligi va diqqati bir nuqtada bo'lishi kerak. ekskursiya biror korxonaga yoki fermada o'tkaziladigan bo'lsa, unda shu korxonaga mutaxassislaridan biri korxonaga faoliyati va uning istiqbollari to'g'risida tushunchalar beradi. O'quvchilarning savollariga javob qaytaradi. Uning ruxsati bilan korxonaga maxsulotlaridan namunalari olinadi va maktab muzeyiga keltiriladi. Keltirilgan namunalardan ko'rgazmali qurol sifatida foydalaniladi.

Ekskursiya paytida o'qituvchi biror o'quvchini nazardan chetda qoldirmasdan mehnat xavfsizligi qoidalari amal qilishi lozim.

Ekskursiya xulosalarini o'qituvchidan boshqa mutaxassis shaxslar (muzey xodimi, agronom, injener) yakunlashlari lozim.

Ekskursiya davomida olingan barcha ma'lumotlarini umulashtirish ham katta ahamiyatga ega. Ekskursiya rejasiga kiritilgan barcha savollar kuzatishlar asosida o'z javobini topishi kerak. agar o'quvchilar ekskursiya davomida olingan taassurotlarini shaxsiy daftarlariga qayd qilsalar yanada yaxshiroq bo'ladi. Ekskursiya paytida ta'limning turli xil usullari – xikoya, suxbat, ko'rgazmalilik va boshqalardan foydalaniladi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchisining hayotida ekskursiyaning ahamiyati katta. Chunki u ekskursiya paytida turli xil kasb egalari bilan tanishib chiqadi (masalan: tikuvchi, misgar, kulol, bog'bon, fermer ishlarini o'z ko'zi

bilan ko`radi.) u yerdagi mutaxassislarining suxbatlaridan baxramand bo`ladi va o`zi uchun biror kasbni tanlaydi.

Ma`lumki tabiatshunoslik darslarida o`quvchi barcha O`qitish metodlarini og`zaki, ko`rgazmali va amaliy metodlarni qo`llaydi. U o`simlik va hayvonlarni namoyish qiladi. Amaliy ishlarni bajarish yo`li orqali o`quvchilarni ayrim organizmlarning tashqi va ichki tuzilishi bilan tanishtiradi. Ekskursiyalarda bolalar tabiatdagi tabiiy guruxlashda qishloq xo`jaligi mavzularga oid ishlarni bajaradi. Ekskursiyalar darslar bilan chambarchas bog`lanadi.

Boshlang`ich sinflard bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta`lim berishning tashkiliy formalaridan biri ekskursiyadir. Ekskursiya jarayonida bolalar ona tabiat to`g`risida aniq tasavvurga ega bo`ladilar. Bu tasavvur tabiatni ko`rish, eshitish, sezish orqali idrok etiladi. Ekskursiya jarayonida boshlang`ich sinf o`quvchilarida tabiat, undagi bog`liqlik va uning qonuniyatlari to`grisida dialektiv tasavvurlar xosil bo`ladi. Bu tushunchalar keyinchalik bolalar egallaydigan ilmiy bilimlarning asosini tashkil etadi, maktabda o`rganiladigan tabiiy fanlarni o`zlashtirib olishni osonlashtiradi. Tabiat to`g`risidagi bilimlardan bexabar bo`lish ko`pincha o`simliklar va hayvonlarga nisbatan noto`g`ri, ba`zi xollarda esa beraxm va shafqatsiz munosabatda bo`lishga olib keladi. Ekskursiya bolalarni tabiatni o`ziga xos xodisa va voqealari bilan tanishtiribgina qolmay balki shu bilan bir qatorda insonlarni tevarak-atrofdagi o`zlashtiruvchi faoliyatining natijalari bilan ham tanishtirib boriladi. Bu esa kishilarning yaratuvchanlik faoliyatiga xurmatni tarbiyalaydi va unda qatnashish xoxishini uyg`otadi, o`z o`lka tabiatidan, unda yashovchi mehnat axlidan gururlanish xissini mustaxkamlaydi.

Tabiatga ekskursiya bolalarda ahloqiy xislarni shakllantiradi. Tabiatdagi birona yangi voqea, xodisani ko`zatayotib bolada quvonish, zavqlanish xissi paydo bo`ladi. Bunday hislar bolalarni bir-biriga yaqin bo`lishga undaydi, jamoaga birlashtiradi. Boshqa faoliyatlardagi kabi ekskursiyada o`zining xulq qoidasi borki, bu qoida bolalarni o`zlarini intizomli tutishlarini talab etadi. Har xil topshiriqlarni bajarish vaqtida (qushlarni boqish uchun yovvoyi utlarning urugini yig`ish) topshiriqga nisbatan javobgarlik xissini, extiyotkorlik, aniq

harakat qilishni tarbiyalaydi. Ekskursiyalarda, kuzatishlar vaqtida o`quvchilar kundalik hayotning narsalarini qabul qilib, ulargi o`xshashlik va tafovut belgilarini topadilar. Ularda oddiy tushunchalar shakllanadi. Fikrlash jarayonida bolalarda aniq fikrlar vujudga keladi. Fikr bevosita qabul qilish va tasavvurlar asosida shakllanadi. Fikrlash faoliyati jarayonida bolalarda atrof olam to`g`risida tushunchalar shakllanadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017. 484 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston”, 2016. - 56 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. - T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 104b

4. SH.M.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim iqtisodiy yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi.

5.«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», T., 1997y.

6. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to’g’risida» gi qonuni. T., 1997y

7. Adizov B. R. Boshlang`ich ta’limni tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fan. doktori. diss... Avtoref. – T.: 2003. - 44 b

8. Baxramov A. Atrofimizdagi olam (1-sinf uchun darslik). T., O‘qituvchi, 2018 2-22 b.

9. BahramovA“Tabiatshunoslik”darsligi 3-sinf.T:“Cho’lpon”nashriyoti. 2018.

10. BahramovA,“Tabiatshunoslik.”darsligi 4-sinf. T.: “Sharq” nashriyoti 2018.

11. Nuriddinova M. I. Tabiatshunoslikni o`qitish metodikasi. T., O`qituvchi, 2005-53 b.

Internet manbalari

www.uznature.uz - O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi sayti.

www.eco.uz - O‘zbekiston ekologik harakati sayti.

<http://www.edunet.uz> - maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilarning sayti.

MUNDARIJA

Kirish.....	1
I BOB Boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik fanini o`rganishning shakllari	
1 - & Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning mazmuni.....	3
2-& Tirik tabiat burchagidagi ishlar. Turli tadbirlarni o`tkazish usullari.....	13
II BOB Sinfdan tashqari ishlarda o`quvchilarning tafakkurini shakllantirishning shakl va metodlar.....	31
1- & Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda interaktiv ta'limiy o'yinlarni tashkil etish metodikasi.....	31
2- & Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida individual va to'garak ishlarini tashkil etish metoodikasi.....	38
Foydalanilgan adabiyotlar.....	60

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

**More
Books!**



yes
I want morebooks!

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at
www.morebooks.shop

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen
www.morebooks.shop

KS OmniScriptum Publishing
Brivibas gatve 197
LV-1039 Riga, Latvia
Telefax: +371 686 204 55

info@omniscryptum.com
www.omniscryptum.com

OMNIScriptum



FOR AUTHOR USE ONLY

